




BOBUR HAMRO

SHIROQNING QAYTISHI

Bobur Hamroyev 1997-yil Toshkent shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutining 3-bosqich talabasi. 2018-yil Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi. Asarlari asosida dramalar, qisqa metrajli filmlar suratga olingan. "Dunyodagi eng goʻzal surat" qisqa metrajli filmi Qirgʻiziston Respublikasida boʻlib oʻtgan "Umut" xalqaro festivalida hamda Texasning San-Antonio shahrida boʻlib oʻtgan "My love Michelle Film" festivalida ishtirok etib, turli yoʻnalishlarda gʻoliblikni qoʻlga kiritgan.

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-9-8



9 789943 647398

BOBUR HAMRO

SHIROQNING QAYTISHI



PIYUSA VA SHIRARIVLAR

КНИГА ДОЛЖНА БЫТЬ
ВОЗВРАЩЕНА НЕ ПОЗЖЕ
УКАЗАННОГО ЗДЕСЬ СРОКА

Количество предельных

выдач _____

--	--

8.2.1
11-45

- 1113 -

О'ЗBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"UOD" JAMOAAT FONDI

BOBUR HAMROYEV

SHIROQNING QAYTISHI

Pyesalar va ssenariylar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

YOSHLAR - KELAJGIMIZ

Uch yil avval (2017-yilda) Boburbek Hamroyevning "Shiroq" she'riy dramasi o'qiganman. Avval bu asar yoshi kattaroq, hayotiy tajribaga ega ijodkorlari bo'lsa kerak, deb o'ylaganim ham bor gap. Nega shu paytgacha bu ijodkorlari tanimaganman, deb o'ylaganman. Chunki she'riy dramaga uncha-buncha qalamkash yurak yutib qol ura olmaydi. Surishirsam, Boburbek hali o'liy o'quv yurtining birinchi bosqich talabasi ekan. Chaqirtirib, gaplashdim. U menga yana bir she'riy drama – "To'maris"ni berdi. Har ikkala asar bir-biridan pishiq-puxtaligi bilan meni hayratlantirdi. Yosh yigitchaning tarixni chuqur bilishi, Shiroq va To'marisning jasoratiga murojaat qilib, tengdoshlarini vatanparvarlikka chorlashi tahsinga loyiq.

Keyinchalik Boburbek zamonaviy dramaturgiyaga murojaat qildi. Uning ilk asari – "Ustoz" dramasi ham hayot haqiqatlarini ochib bergani bilan ustozlari olqishiga sazovor bo'ldi. Ayni paytda ushbu asar Jizzax viloyat musiqali drama teatrida yosh, iqtidorli rejissyor Shohrux Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilmoqda. O'zbekiston Xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" romani asosida insentirovka qilingan "Namoz polvon" asari ham yosh ijodkorning yurtimiz tarixi va Vatan ozod-

Nashr uchun mas'ul:

Nodir IONUZOQ

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

birinchi o'rinbosari

Mas'ul muharrir:

Abduqayum YO'LDOSHEV

Qo'lingizdagi kitobchada yosh, iqtidorli ijodkor Boburbek Hamroyevning saralangan asarlari joy olgan. Siz "Shiroq" she'riy dramasi o'qib tarixga sayohat qilsangiz, "Ustoz" dramasi bosh qahramoni Qodir domla birinchi o'qituvchingizni yodga soladi. "Dunyodagi eng go'zal surat"da ona va farzandning bir-biriga cheksiz mehr-muhabbatiga guvoh bo'lsangiz, "Urushning bir kuni"da qo'shni afg'on xalqining dard-u tashvishlariga sherik bo'lasiz. Urush degan qattol yovga nisbatan ko'nglingizda cheksiz-chegarasiz nafrat uyg'onadi. Aslida har qanday asarning, ayniqsa, badiiy asarning maqsad-mohiyati ham shunda. Ya'ni o'quvchini ezigulk so'qmog'idan yetaklab, yomonlikdan hazar qilib yashashga o'rgatishdir.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6473-9-8

© B. Hamroyev, 2020
© "Adabiyot", 2020

ligi yoʻlida jonlarini tikkan bobolarimizga hurmat-ehtiromi namunasi, deyshimiz mumkin. Boburbek yosh boʻlishiga qaramasdan, kino-senariy sohasida ham oʻzini sinab koʻrishga ulgurdi. Uning ssenariysi asosida suratga olingan "Dunyodagi eng goʻzal surat" qisqa metrajli filmi nafaqat Oʻzbekistonda, balki okeanorti mamlakatlarda ham eʼtirof etildi va bir qator xalqaro mukofotlarni qoʻlga kiritdi. Shuningdek, "Gʻalabaniy 75 yilligi", "Urushning bir kuni" qisqa metrajli filmlari ham sahnalashtirilib, tomoshabinlar olqishiga sazovor boʻldi. Biz, odatda, yoshlar bizning kelajagimiz, degan gapni takrorlashni yaxshi koʻramiz. Dartaqiqat, Boburbek Hamroyevdek isteʼdodli ijodkor yoshlar adabiyotimizning kelajagini yaratishga shubha yoʻq. Ishonmasangiz, qoʻlingizdagi kitobni oʻqib chiqing. Oʻzingiz uchun yoshlarimiz orasidan yetishib chiqayotgan yangi isteʼdodni kashf etasiz.

Abduqayyum YOʻLDOSHEV,
Oʻzbekiston Yozuvchilar
uyushmasi aʼzosi.

SHIROQNING QAYTISHI

Bir parda, yetti koʻrinishli pyesa

Qatnashuvchilar:

Shiroq – 35–40 yoshlardagi barvasta yigit.

Rustak – 55 yoshlarda.

Arslon bobo – 65 yoshlardagi tik qomatli qariya.

Soʻnggi koʻrinishda Arslon bobo

110 yoshlardagi, hassaga suyangan

muroni qariya sifatida namoyon boʻladi.

Bunyod – Shiroqning oʻgʻli. 12 yoshli oʻsmir.

Doro – 50 yoshlardagi Eron podshosi.

Jarchi – 30 yoshlardagi jikkak askar.

Sarkarda – 55 yoshlardagi odam.

Oqsogʻol – 55 yoshlardagi kishi.

Eron sarkardasi – 45 yoshlarda.

Doroning maslahatchisi – 70 yoshlarda.

Xuliyaboshi.

Askarlar:

BIRINCHI PARDA BIRINCHI KO'RINISH

*Darvesh avval biroz do'mbira chalib turadi.
So'ng rivoyat boshlaydi.*

Darvesh:

Tarixni yodga oling,
Uzoq emas oramiz.
Aytaman, quloq soling,
Turon tomon boramiz.

Afsonaviy, osuda diyor,
Qushlari sayrar maston.
Tog'lari bor purvigor,
To'rt taraf bog'-u bo'ston.

Qahramonlar tug'ilgan makon,
Sohilda tovlanadi oy.
Riqlari misoli ummon,
Tangrim nazar solgan ko'rkam joy.

*Biroz to'xtab, yana do'mbirasini chalib, she'r
aytadi.*

Go'zal ekan to'rt tomon,
Boqsang ko'z qamasharkan.
Yashar ekan bir cho'pon,
Shiroq deb atasharkan.

Keng ko'krakli pahlavon,
Ko'zida yonar olov.
Ko'zi o'tkir, zo'r o'g'lon,
Kaqibga bermaydi dov.

Ko'zlari kulib turar,
Yo'qdir gina, alami.
Kamsuqum, kam gapirar,
Uning bor o'z olami.

Yana do'mbira chaladi.

Shunday go'zal kunlarda
Keng osmon bulut bo'lib.
Kosa yong'ir yog'ibdi,
Ariflar, soylar to'lib.

Chaqmoq gumburlab chunon,
Suvga to'lib to'rt tomon.
Juda sovuq bo'libdi
Yong'ir tingani zamon.

Shiroq qo'ylarin o'ylab,
Zerikibdi, tolibdi.
Bir payt baqirib, shoshib,
Ijarchi kelib qolibdi.

*Sahnada keng dala, bahor fasli ko'rinishi na-
moyon bo'ladi. Arslon bobo kulbasi oldida has-
susiga suyangancha o'ynab o'tirgan nevarasi*

Bunyodni kuzatib turibdi. Shu payt uzoq-uzoqlardan otning dupuri va jarchining ovozi eshitiyladi.

Jarchi:

Eshitmadi demang, botirlar,
Jang bo'ladi yurtida beayov.
Pahlavonlar, yuragi borlar,
Eron shohi bo'lmish bizga yov.

Qo'lga qur'ol oling, og'a-inilar,
Urush bo'lar, erta muqarrar.
Agar bugun bir tan bo'lolsak,
Yov ustidan quchamiz zafar.

*Otning dupuri tinib, sahnaning chol va nabira
turgan tomoni qorong'ulashib, ikkinchi tomoni
yoritiladi.*

Darvesh:

Tinglab turgan olomon
Hayratlanib qolibdi.
Yig'lashibdi rost-yolg'on
Va qo'rguvga to'libdi.

G'ala-g'ovur boshlanib,
Dilga o'y tushib yomon,
Charchab toliqqan jarchi,
Suv so'rabdi shu zamon.

Shiroqning bormi, deb jarchi
Shiroq tomon yuribdi.
Meshini to'ldirguncha
Sahbatlashib turibdi.

Shiroqning o'g'li Bunyod
Hayron bo'lib turarkan.
Motamlash inson haqda
Hohosidan so'rarkan.

*Shiroq cho'pon tayog'ini beliga ko'ndalang
qo'yib, "qur-ey, qur-ey" deganicha aylanib yu-
rildi. Qo'y-qo'zlarining ma'ragan ovozi eshi-
tiladi. Sahnaning qorong'u tomonidan chiqib
kelgan jarchi Shiroqning oldiga suv solinadi-
gan meshini ko'tarib keladi. Ular nimalarnidir
gaplashib turgan paytda sahnaning o'sha to-
moni qorong'ulashib, Arslon boba va Bunyod
turgan tomoni yoritiladi. O'ynab o'tirgan Bun-
yod o'rnidan turib bobosining oldiga keladi va
jarchi haqida so'raydi.*

Bunyod:
Hohu, u kim, unvoni nadur,
Menga bizni yo'qlar bu zamon?

Arslon boba:
Ismini-ku bilmayman, o'g'lim,
Lavozimini muhtaram mehmon.

Bunyod:

Bobo, bu zot mehmon ko'rimmas,
Qarang, qilich osgan beliga.

Arslonbobo:

Bilmam, o'g'lim, balki askardur,
Xizmat qilib yurgan eliga.

Darvesh:

Bobo, o'g'lin ovutsin,
Biz xalaqit bermaylik.
Azizlar, endi gapni
Shiroqdan eshitaylik.

Jang xabarin eshitib,
Shiroq ko'nglin g'ashlabdi.
G'azablanib, tutaqib,
Jarchiga gap boshlabdi.

*Arslon bobo va Bunyod turgan joy qorong'u-
lashib, yana Shiroq va jarchi turgan joy yoritiladi.*

Shiroq:

Bu qandayin xabar bo'ldi, oh,
Chiqib borar qinidan yurak.
Bu zaminda bormidi gunoh,
Ayt, qayerga borishim kerak?

Jarchi:

Jang maydoni hazil joy emas,
Qattol yovga to'lmish hammayoq.

Pahlavonlar yurtida yetarli,
Sen, jigarim, qo'yilaringni boq.

Shiroq:

Hos qil, jarchi, boshqa gapirma,
U'ururinga botar gaplaring.
Sen cho'pon deb, yerga urasan,
Lavozimni bo'lmas mardlarning.

Jarchi:

Qo'y, jahlimni chiqarma, Shiroq,
Buvingdan quy meshga to'ldirib.
Qilich tutmoq bilmaysan hatto,
Jang qilaman, deysan kuldirib.

*Jarchi Shiroqning qo'lidan meshni olib, suv
tubiguncha sahmadan chiqib ketadi.*

Kashitmadim demang, botirlar,
Jang bo'ladi yurtda beayov.
Pahlavonlar, yuragi borlar,
Kion shohi bo'lmish bizga yov.

Qo'lga qur'ol oling, og'a-inilar,
Jang maydonga qilingiz safar.
Agar bir tan, bir jon bo'lotsak,
Yov ustidan quchamiz zafar.

*Jarchi chiqib ketgach Arslon bobo so'z bosh-
laydi.*

Arslon bobo:

Hammasini eshitdim, o'g'lim,
Ko'ksingdagi dardmi, alammi.

Shiroq:

Yurtim uchun jang qilmas bo'lsam,
Ota, ayting, men ham odammi?

Arslon bobo:

Jarchi mutlaq haq gapni aytdi,
Qilich o'rgatmadim, attang-a.
Lek yigitsan, ko'ksingni ko'tar,
Izn so'rab borilmas jangga.

Nega boshing egib turibsan,
Kuchga to'lgan ikki bilaging.
Qilichsiz ham yovni yengasan,
Agar yonib tursa yuraging.

Sen o'zingni er sanamasang,
O'sha kuni otang o'ladi.
Elni, yurtini himoya qilmoq
Har yigitning burchi bo'ladi.

Shiroq:

Rost aytasiz, biroz adashdim,
Dilga o'ylar keldi tumonat.
Oq yo'l tilang, jangga boraman,
Bola-chaqam sizga omonat.

Arslon bobo:

Oq yo'l, o'g'lim, ko'ngling to'q bo'lsin,
Yo'llosh bo'lsin senga g'urur, or.
Albatta, amalga oshajak,
Agar niyat bo'lsa ulug'vor.

Burveshi:

Maq'zur boqdi tog'lar tomonga,
Kurtumini yelkaga ildi.
Oq yo'l olgach cho'pon bobodan,
Shiroq o'g'li yoniga keldi.

Shiroq:

O'g'lim, suruv senga, suluvlar senga,
Tayog'im egasiz qolmasin.
Tasht u dalalarim, maysalarimni
Hugoh yog'iy kelib poymol qilmasin.

O'zingni asragin, bobongning
Amol qil aytdan har so'ziga.
Har darsa, xo'p degin, jon bolam,
Yil toqma bobongning ko'ziga.

Shiroq tayog'ini Buryodga berib, otasidan oq
jiribha olib, sahmadan chiqib ketadi. Arslon bobo
ko'zini yoniga qaratib qolishadi.

IKKINCHI KO'RINISH

*Shoh chodiri. Yurt oqsoqollari, maslahatchilar
va amaldorlar bo'lajak jang xususida muzokara
olib borishmoqda.*

Darvesh:

Jang xabarin eshitib,
Yurak yig'laydi, yurak.
Kerak bo'lsa jon berar
Xalqi uchun shoh Rustak.

Rustak ogil, dono shoh,
Qaror qildi so'nggi dam.
Boshqa shohlardan farqi,
Tinglar edi xalqin ham.

Endi gapni bu yoqdan tinglang,
Shiroq kela tursin yo'lda bemalol.
Biz esa Rustakni tinglaymiz,
Qani bilaylik-chi, bu yonda ne hol?

Rustak:

Doro kelar Eron yurtidan
Mo'r-malaxday lashkari bilan.
U yurgan yo'l vayrona bo'lar,
Vayronada yashar qashqir va ilon.

U olgan yurt ayollari xor,
Yig'itlari qul bo'lajakdir.

Hush ol!sa agar yurtini yov,
Hamma g'urur kul bo'lajakdir.

Mahkama, munozara, kerakmas gap-so'z,
Moli mahkam bog'lab, jangga shaylaning.
Yov yo'lida har biringiz cho'ng,
Uyib bo'lmas tog'ga aylaning.

Bo so'nggi qarorim, amrim ham shudir,
O'zim hoshlab kurgayman jangga.
So'nggi komchi qonimizgacha
Bodiga bo'lsin ona Vatangal

Darvesh:

Rustak jangga boshladi xalqni,
Bihar edi dushmani qattol.
Shu payt sekin o'rnidan turib,
Gap boshladi kekxa oqsoqol.

Oqsoqol:

Hakmdorim, ne desangiz shu,
Vatan uchun jon beramiz, xo'p.
Ammo bir narsadan ko'z yumib bo'lmas,
Yov qo'shni bizdan ikki karra ko'p.

Rustak:

Shahrimni sinama, oqsoqol,
I boyatima, yov qarshingda turgan payt.
Ko'p uzogdan boshlama gapni,
Kahrim bor, maqsadingni ayt.

Oqsogol:

Sizni, ayollarni, qariyalarni
Asramoq kerakdir jang bo'lgan chog'da.
Men joy topdim, ko'p uzoq emas,
Ikki qir narida, yashil chorbog'da.

Men-ku jang qilmogdan aslo qo'rqmayman,
Millat haqqi, ishonimg, rost erur so'zim.
Niyatim beg'araz, yurtni asramoq,
Sizlarni u yerga eltaman o'zim.

Darvesh:

Ayon bo'ldi uning niyati,
Unda or yo'q, unda yo'q yurak.
El oldida aytilgan gapni
Haqorat deb sanadi Rustak.

Rustak:

Ko'p haddingdan oshma, oqsogol,
Millatni qo'shmagin, yolg'ondir so'zing,
Sening niyatingni ko'rurman ayon,
Ruhsat senga, boraver o'zing.

Darvesh:

Shoh yonida turgan sarkarda
Chidamadi, berolmadi dosh.

Sarkarda:

Oqsogol, o'zingni o'ylaysan, balki,
Bundan ortig'iga yaramaysan ham.

Kelmaslar, ayollar, bu bir bahona,
Tutib qolmoq niyating shu dam.

Oqsogol:

Tutib chiqib qolibdimi, sarkarda,
Nihayati, hammaga birdayman.
Agar yana bir so'z desang, bas,
Borni yetib kelmasdan avval
Battun urug'ingni o'zim qirgayman.

Sarkarda:

Menimcha, oshirib yubording biroz,
Bog'itishdan oldin holingga qara,
Hosangni op, qo'ysam, turolmaysan ham,
Kel, yaxshisi, kechirim so'ra.

Oqsogol:

Yoshing o'tib ancha aynibsan,
Bir mazuk emasing yoshligingda ham.
Yuradaman, jangning o'rniga
Havasalr haqida o'ylashing alam.

Sarkarda:

Hosir tilgungni uzib olaman,
Ular so'ra, jon shirin bo'lsa.
Hilalgga ham alam qiladi, ishon,
Bog'itish ko'salar oqsogol bo'lsa.

Rustak:

Bas qiling, sizsiz ham yetar muammo,
O'zaro iforazni unutib turing.

Undan ko'ra o'ylang yovni yengmoqning,
Yog'iyni yiqmoqning yo'lini ko'ring!

Oqsogol va sarkarda qo'llarini ko'ksilariga
qo'yib, Rustakka ta'zim qilishadi. Shu payt xabar
chi kirib hukmdorga murojaat qiladi.

Xabarchi:

Hukmdorim, bir inson kelmish,
So'raydi mashvarat izimini.
O'zi cho'pon ekan mana shu yurtda,
Shiroq deb aytadi ismini.

Darvesh:

Bahs avjiga chiqqan pallada
Shiroq ruxsat kutmoqda edi.
Xabarchi so'zini tinglab sarkarda,
O'rniidan turdi va shunday dedi:

Sarkarda:

Yo tavba, yo tavba, bu endi nima,
Teskari bo'lganmi dunyoning ko'zi?
Cho'ponga nima bor mana shu paytda,
Oqsogoli yetib turgandi o'zi.

Darvesh:

Sarkardaga qasdma-qasd bo'lib,
Uning gapin to'xtatib, bo'lib.
Shohga qarab bir fikr aytdi
Sarkardaga kinoya qilib.

Oqsogoli:

Shiroqni, tanimayman, bizning qishloqdan,
qo'shni bo'lib yashaymiz azal.
Ijda hujjat, to'g'riso'z yig'it,
Axein tinglab ko'raylik avval.

Husnaho:

Ayting, kimsin.
Shiroq kirib keladi va hammaga bir-bir
qarab olib so'z boshlaydi.

Shiroq:

Shohim, sizga muhim gapim bor,
ko'rsatmani silt qildi faryodlar.
Bu gapni men faqat sizga aytaman,
Agar chiqib tursa muhtaram zotlar.

Hammam hayron, bir-biriga qaraydi, qayerdan-
dir kimgi ovozlari eshitiladi va sarkarda jahl bilan
o'rniidan turib, gap boshlaydi.

Sarkarda:

Yo tavba, qandayin zamonlar keldi,
bu qanday kunlarga qolmadik.
Hov cho'pon, o'pkangni bosib ol,
bu hali turlamiz, hali o'lmadik.
Cho'pon chiq deb tursa, bizga bu mahol,
buz ustroq bilmaymiz kimligini ham.
Hukmdorga ziyon yetkazar balki,
halka, ayg'oqchidir, balki muttaham.

Oqsoqoli:

Hoy cho'pon, biz senga dushman emasmiz,
Hurmatsezlik qilma amaldorlarga.
Taklifing bormidi, marhamat, gapir,
Biz ham seni tinglaymiz birga.

Shiroq qat'iy ohangda hukmdorga murojaat qiladi.

Shiroq:

Cho'ponlar ichida shunday naql bor,
langga yaramaydi qarigan otlar.
Muhim gap, men faqat sizga aytaman,
Agar chiqib tursa muhtaram zotlar.

Sarkarda:

Sogchilar, ko'chaga haydanglar buni,
Hazil deb bildingmi muhtaram zotni!
Zindonband etinglar, suv-non bermanglar,
Ko'rsatib qo'yaman qarigan otni.

Sogchilar Shiroqning qo'lini qayirib olib chiqib ketayotganda Rustak gap boshlaydi.

Rustak:

To'xtang, Shiroq qolsin, siz chiqib turing,
Avomni tinglamog mening vazifam.

Hamma hayratda, birdan g'ala-govar boshlanadi va xonadagi barcha amaldorlar jahl bilan

birin kettin chiqib ketishadi. Hamma chiqqach, shonim turgun joy yoritilib, Shiroq va Rustak tur-gun joy qorong'ulashadi.

Ko'karda:

U mening qishloqdan degan edingmi?
Ha, asadim bu narsa ko'rinar ayon.
Mashhurat to'rida yalangoyoqlar,
Bu qanday ko'rgilik, bu qanday isyon?

Oqsoqoli:

Kishilardan chiqdimi bobong kimligi?
Yolingga ork berib yubormadingmi?
Shu yurt farzandidir shoh ham, gado ham,
Kor qiltitish lavozim sening ko'zingni.

Hayron:

Birdan Shiroq dodiab yubordi,
Juda achchiq dodiadi, yomon.
Hamma hayron, sukutda qotgan,
Shiroq chiqdi og'zi-burni qon.

*Qat'iy borni ko'rib tashlangan,
U qanday uchradi bunday baloga?*

*Chakallarga bir qarab olib,
Chiqib ketti suvsiz sahroga.*

*Shiroq ketib borar ekan, o'g'liga aytgan so'zla-
rini takrorlab boradi.*

Shiroq:

O'g'lim, suruv senga, suluvar senga,
Tayog'im egasiz qolmasin.
Dasht-u dalalarim, maysalarimni
Nogoh yog'iy kelib poymol qilmasin.

O'zingni asragin, bobongning
Amal qil aytgan har so'ziga.
Ne desa, xo'p degin, jon bolam,
Tik boqma bobongning ko'ziga.

Sahna qorong'ulashadi.

UCHINCHI KO'RINISH**Ma'rifat:**

Ma'rifat: Bu ham go'zal yurt,
Quyush bu yurtga ham beradi oro.
Mama saroy, shohning xonasi,
Mashvarat to'rida o'tirar Doru.

Doru: U ham jasur sarkarda,

Ammu yuragida cheksiz qahr bor.
U zangin yo'ldan qaytmas,
Juda savfli dushman,
Ming'antir, ayyor.

Bu yerdan ham mashvarat qizg'in,
Hech kim mag'lub bo'lish istamas garchi.
Mashvaratni bo'lishga majbur,
Iki so'rab kelar xabarchi.

*Bu yerdan ham mashvarat qizg'in, Doru ham sarkardalari bilan
juda xonada mashvarat qilib o'tiribdi. Shu payt
xabarchi kiradi.*

Xabar:

Changinob, hozat bering,
Yur tomondan kelibdi mehmon.
Shundan nafot so'rab kelibdi
qutub turri kesilgan cho'pon.

O'tirganlar hayron bo'lib bir-biriga qarashadi. O'zaro shivirlashib nimalaridir gaplashishadi. Doro ularga e'tibor bermay xabarchiya yuzlanadi.

Doro:

Ayting, kirsin.
Doroning ruxsatidan so'ng, yuzini
o'rab olgan Shiroq kirib keladi.

Shiroq:

Eshitgandim mardligingizni,
Mana endi ko'rib turibman.
Dushman bo'lib ro'parangizda
Kishanlarsiz, ozod turibman.

Doro:

Gap-so'zingdan anglay olmading,
Meni yo'qlab kelibsan tunda.
Najot so'rab kelgan emishsan,
Ayt arzingni, qulog'im senda.

Shiroq:

Qay birini aytay, qaysiga kuyay,
Yurak-bag'rim yonadi, hayhot.
Juda yomon alam qilarkan,
O'z yurtingdan topmasang najot.

Niyatim pok, yurtini asramoq,
Jang xabari yuragim tildi.

Men xatini aytgandim faqat,
Yiqilq buroim shu on kesildi.

Men sog ko'chdim bunday vatandan,
Bu dunyoda qolmadi ma'ni.
Bundan yurtinga sharmanda bo'ldim,
Yusuf ko'lmis qaytib borgan.

Ana endi jang latar ko'ngil,
Yuradim yonmoqda, bilsangiz.
Kuching qo'shib jang qilmogchiman,
Agar sahingizga qo'shib olsangiz.

Yurakbardas:
Har jon, seni anglab turibman,
Yuragim ilim, anduhga botgan.
Jingun bihga sodiq bo'lolmas
Jundi ko'cha yurtini sotgan.

Yurakbardas:
Yurakbardas, shoshib gapirma,
Jangmaymizda sarbozlar safi.
Shunday paytlar kelib qoladi,
Jangning ham tog'adi naf.

Men jangi bitim gapiradi.

Yurakbardas:
Jangi bitim, men ham gapirsam,
Jangdayverib qolmadi toqat.

Juda yaxshi jang qilasislar,
Lek tinglashni bilmaysiz faqat.

Yov sarkardasi va maslahatchisi birvarakayiga.

Bizni kechiring.

Doro ularning gapiga ahamiyat bermasdan Shiroqqa qarab so'z boshlaydi.

Doro:

Holing juda ayanchli, ko'rsam,
Sababini tushunmadim lek.
Ne sababdan seni xo'rlashdi,
Boisini biz ham bilaylik.

Shiroq:

Bir boshidan aytib beraman,
Menga biroz ajratsangiz vaqt.

Doro:

Qulog'im senda.

Shiroq:

Jarchidan eshitdim yov xabarini,
Boshlangandi yurtda g'alayon.
O'ylab ko'rdim, jang qilar bo'lsak,
Mag'lub bo'lishimiz ko'rinar ayon.

Ko'zga sira uyqu kelmaskan,
Yurt boshiga tushganda soya.
Hukmdorga shoshildim bunda,
Ne bo'ladi axir nihoya.

Borsam, majlis bo'lmoqda ekan,
Izn oldim kirmoqlik uchun.
Sarkardalar bari xomush o'tirar,
Ularning ko'zida ko'rmadim uchqun.

So'ng maslahat berdim ularga,
Taslim bo'lmoq eng to'g'ri yo'ldir.
Farzandingni, yurtini o'ylasang,
Bo'yin eggil, g'ururni o'ldir.

Qo'lida qilichin o'ynardi,
Hukmdorda qolmadi toqat.
Xoin dedi, qiynadi, so'kdi,
Men yurtimni o'ylardim faqat.

Rustak yurtdan haydadi meni,
Tahqirladi lashkar oldida.
Qaytmaz edim o'sha vatanga,
O'g'lim, qizim yig'lab qoldi-da.

Shiroq sahnaga teskari turgan holda keskin harakat bilan yuzini o'ragan matoni oladi. Unga ko'zi tushgan Doro seskanib o'rnidan turib ketadi. Doro, oqsoqol va sarkardalarning yuzidagi sarosima yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Oradan biroz o'tib, Doro joyiga o'tiradi va so'z boshlaydi.

Doro:

Menga yoqding, dono ekansan,
Yigit kishi mard bo'lmog'i shart.
Sening alamingni olamiz,
Sira g'amga botma, ko'z yoshingni art.

Yovsarkadas:

Sizga biroz tushunmay qoldim,
U dushman, u xoin, o'lishi kerak.
Biz mag'lubmiz, qahr o'rniga
Yovga achinishni boshlasak.

Doro:

Birpas jim tur, so'zimni bo'lma,
Yov bo'lsa ham, u bizga mehmon.
Balki, biror rejasi bordir,
Fikrini tugatsin, beringlar imkon.

Shiroq:

Jang qilmoqni bilmayman, rosti,
Yo'lboshchilik qo'limdan kelar.
Qal'aga bir yo'l bor yashirin,
Uni faqat cho'ponlar bilar.

Darvoza oldida minglab pistirma,
Bizning bor, yov bilmas choramiz.
Hamma darvozada poylab turgan payt,
Biz qal'a ortidan boramiz.

Yurtim boshb oling, mayliga,
Faqat bitta iltimosim bor.
Hustak o'lsa mayli, faqat xalqimga
Badam qiling, yetmasin ozor.

B o b u r

Hamma ulmoq shunday bo'ladi,
Aylimga qoyilman, ko'p yasha, cho'pon.
Agar yurtning boshb ololsak,
Uning hokim bo'lasan, ishon.

Hustak esa ketishning mumkin,
Yadimga elttinglar Shiroqni.

Jang uchun hozirlik ko'ringlar,
Yakshirib qo'yinglar qurol-yaroqni.

Boshb ham ruxsat, kech bo'lib qoldi,
Qarorni ortaga qabul qilurmiz.

Hamma chiqib ketadi. Doro ham chuqur o'yga
tushib. Birozdan so'ng u boshini ko'tarib, so'z
boshlaydi.

B o b u r

Xudiyatlashi qani, chorlang qoshimga,
Bir sir barga o'xshar bu yerda.

Ayfen kelguncha o'ziga-o'zi gapiradi.

Agar uning so'zi rost bo'lsa,
Omad qushi qo'ndi qo'limga.

Lekin tirik qoldirib bo'lmas,
Xoinlar mahkumdur o'linga.

*Xufiyaboshi ta'zim qilgancha kirib keladi. U
yuziga niqob taqib olgan.*

Xufiyaboshi:

Yo'qlatibsiz, olampanohim.

Doro:

Shiroqning yurtiga bor,
Bilgin yaxshi-yomonni.
Aniqlab kel, cho'ponning
Gapi rostmi, yolg'onmi.

TO'RTINCHI KO'RINISH

*Shiroqning uyi, Bunyod va Arslon bobo to'nka
ustida qo'yilariga qarab, suhbatlashib o'tirishib-
di. Ular suhbatlashayotganda qo'y-qo'zilarning
ma'ragan ovozi eshitilib turadi.*

Darvesh:

Hayot qiziq, gul ham tikon ham,
Birdek o'ssa hayot bog'ingda.
Senga taqdir bitarkan tangrim,
Sen dunyoga kelgan chog'ingda.

Sen qahramon bo'lmog'ing uchun,
Qirol yo shoh bo'lish kerakmas.
Vatan desa yonib ketmasang,
Unda ko'ksingdagi urgan yurakmas.

Jang ko'p bo'lgan avval, hozir ham,
Jang tanlamas zamon va makon.
O'g'lini o'linga kuzatgan
Otalar ham buyuk qahramon.

Bunyod:

Bobo, otam hayallab qoldi,
Shu paytgacha kelmadi qaytib.

Arslonbobo:

Menga borib suv olib kelsang,
Hammasini beraman aytib.

Bunyod yugurib borib bobosiga ko'zada suv olib ketadi va yaqiniga borib o'tirib oladi. Arslon bobo suvni ichib, Bunyodga qarab gapiraman deb turganda to'satdan hassasiga suyanib, yerga o'tirib qoladi va chap ko'ksini mahkam changal-laydi.

D a r v e sh:

Ota yerga yiqildi,
Titrab ketdi yer, osmon,
Aytolmasdi o'g'lini,
Sog'inardi u yomon.

B u n y o d:

Bobo, meni qo'rqitmang, axir,
Endi savol bermayman, mayli.
Ranginiz oqarib ketibdi,
Yo tabibni aytib kelaymi?

A r s l o n b o b o:

O'g'lim, qo'rqma, hammasi yaxshi,
Qarichilik, charchabman biroz.
Tabibni ham ovora qilma,
Bu shunchaki qarilik, xolos.

D a r v e sh:

Bobo turdi. Bunyod yosh edi,
U mutloq yo'qotgan halovatini.
U o'lmaydi. Asrashi kerak
Farzandining omonatini.

Ot dupurin eshitib,
Otaning ko'ngli toshib,
Chopib chiqar, o'g'limas,
Sarkarda kelar shoshib.

Shu payt uzoqdan otlarning dupuri eshitiladi, sahnaga sarkarda va ikki askar kirib keladi. Arslon bobo o'rnidan turib, kiyimlarini qoqqancha ularni qarshi oladi.

A r s l o n b o b o:

Kelinglar, kelinglar, mehmonlar,
Qarilik ham qursin, yurak og'riydi.
Bunyod, o'g'lim, tez choygga qara,
Mehmonni yaratgan siylagan deydi.

S a r k a r d a:

Salom berdik, bobo, farzanding qani,
Shu qirda yurardi, yurtning naqshiydi.
Nega izn berding ahmoq o'g'lingga?
Qo'y boqib yurgani yaxshiydi.

A r s l o n b o b o:

Cho'ponmi, kulolmi, duradgormi yo,
Yurtini asrasa, yomonmi?
Gaplaring bunchalar ilmoqli,
O'g'limning tan-joni omonmi?

S a r k a r d a:

Qani edi o'lgan bo'lsaydi,
Bobo, nega gapim ko'nglingga botdi?

Sen tarbiyat qilgan o'g'loning
Vatanni, millatni va seni sotdi.

Arslon bobo:

Voh falak, sarkarda, o'ylabroq gapir,
Uvoliga qolma umrimning.
Senga buni kim aytdi axir,
Hoziroq ko'rishim kerak o'g'limni.

*Arslon bobo yana hassasiga suyanganicha ba-
zo'r yerga o'tiradi va yuragini changallaydi.*

Sarkarda:

Mening o'g'limni ko'r, askarlar boshi,
Yuzini ko'ksimga bosaman.
Sening o'g'ling qaytib kelmaydi,
Kelsa, uni dorga osaman.

Bir necha kun oldin saroyga bordi,
O'ylardim o'g'lingni jasur, bahodir.
Qochib qolish kerak, dedi farzanding,
Vatansiz yashamoq o'limdan og'ir.

Vos-vos bo'lganmi u, anglay olmadim,
Bizlarni haydadi saroydan.
Kuchimiz yetmasmish Doroga,
Taslim bo'ling dedi, u birdan.

Ahmoq farzandingni mantiqsiz gapi
Olampanoh ko'nglin g'ashladi.

Betarbiya bolajoningning
Quloq-burnin kesib tashladi.

*Shu payt Bunyod choy va piyola ko'tarib kelib
qoladi, oqsoqol uni bag'riga bosadi.*

Sarkarda:

Eh sho'rlik, peshonang sho'r ekan, o'g'lim,
Ichida bo'larkan odam olasi.
Hamma otasini falonchi desa,
Seni atashadi xoin bolasi.

Arslon bobo:

Yurti uchun omon bo'lar, sog' bo'ladi,
Yurt yashnasa, obod bo'lar, bog' bo'ladi.
Tillingni tiy, yolg'on aytma, hoy sarkarda,
Mening o'g'lim yov yo'lida tog' bo'ladi.

Xizmat bo'lsa, vataniga kor bo'ladi,
Qashshoq bo'lar, xarob bo'lar, xor bo'ladi,
Nima bo'lsa bo'lar, ammo bilib qo'ygin,
Mening o'g'lim g'urur bo'lar, or bo'ladi.

Vataniga sitami yo'q, jabri yo'qdir,
Haqsizlikka, adovatga, sabri yo'qdir,
Mening o'g'lim xoin emas, qasami bor,
Yurttni sotsa, otasining qabri yo'qdir.

*Arslon bobo gapira turib qalqib ketadi va yer-
ga o'tirib qoladi.*

Sarkarda:

Kelgan edim boshing olgani,
Ko'rdimki bunga ham loyiq emassan.

Arslon bobo:

Tupurdim kiyiming, lavozimingga,
So'zing yolg'on, o'zing tuproqdan pastsan.

Sarkarda:

Sen kimsan, gap-so'zing nimadir, cho'pon,
Yo'q, kasbingni hurmat qilaman.
Qanday insonliging, bergan tarbiyang,
O'g'lingning ishidan yaxshi bilaman.

Sarkarda jahl bilan yurib sahnani tark etadi. Vahimali musiqa yangrab, sahna nim qorong'ulashadi. Arslon bobo yuragini changallab, yerga o'tirib qoladi. Birozdan so'ng Bunyodning "Booobooooo" degan qichqirig'i eshitiladi va sahna qorong'ulashadi.

BESHINCHI KO'RINISH

Doro qarorgohi. Sahnada Shiroq, yov sarkardasi va maslahatchi gaplashib turibdi. Ular-ning atrofida askarlar yo'lga tushish uchun anjom-aslahalarni yig'ishtirib yurishibdi. Sahnaning bir chetida Doro qilichiga suyangancha uzoq-uzoqlarga qarab turibdi. Shu payt xabarchi xufiyaboshi kelgani haqida xabar beradi. Doro sergak tortadi.

Doro:

Ayting, tezroq kirsin, toqat bo'ldi toq.

Doroning ijozati bilan ta'zim qilgancha xufiyaboshi kirib keladi. Uning yuzida niqob.

Xufiyaboshi:

Olampanoh, ijozat bering,
Barchasini bildim birma-bir.
Shiroq bizga yolg'on aytmabdi,
Bechoraga bitmish shum taqdir.

Uch kun avval borgan saroyga,
Yurtdan kechib chiqib ketibdi
Va Rustakning yugurdaklari
Otasini qatl etibdi.

Bir chetda xufiyaboshini tinglab turgan Shiroq "Ota" deb baqirib yig'lab yuboradi. Doro uning yaqiniga borib, so'ng unga gapiradi.

Doro:

Rustak juda haddidan oshdi, Ayt, qancha yo'l oramiz?

Shiroq:

Hoziroq yo'lga chiqsak, Yeti kunda boramiz.

Doro:

Mayli, hozir yo'lga chiqamiz, Bor kuchimni ishga solaman. Yeti kunda yetib boramasak, O'zim sening boshing olaman.

Doroning "otlarning" deganidan so'ng Doro, uning ortidan yov sarkardasi, maslahatchi, Shiroq va boshqalar sahnadan birin-ketin chiqa boshlashadi. Sahnada shovqin-suron, otlarning kishnagan ovozi, qurol-yaroqlarning shaqur-shuquri, askarlarning baqir-chaqiri eshitilib turadi. Ovozlar sekinlashgan sayin sahna chirog'i ham qorong'ulasha borib, ovozlar bilan bab-baravar o'chadi.

OLTINCHI KO'RINISH

Sahnada askarlar suhbatlashib o'tirishibdi. Atrof qorong'uligidan tun ekanini bilsa bo'ladi. Yov sarkardasi yolg'iz o'tirgan Shiroqning yoniga keladi.

Yovsarkardasi:

Shiroq, sening nigohing – olov, Men qahrni ko'ryapman unda.

Hali ham kech emas, to'g'risini ayt,

Qanday ayyorlik bor sening ko'nglingda?

Shiroq:

Seni sarkarda deb atasharmidi?

To'g'risi, Doroga hayron qolaman.

Qo'rqdingmi, mayliga, qaytib ketaver,

Askarlarni o'zim boshlab boraman.

Sahnada qorong'ulashadi. Sahnada ortidan otlarning kishnagan, askarlar va shamol tovushi eshitiladi va birozdan so'ng sahna yorishadi. Yana tun. Askarlar dam olib o'tirishibdi. Maslahatchi yonboshlab yotgan Shiroqqa gapiradi.

Maslahatchi:

Poyoniga yetdi ikkinchi kun ham,

Rustakning yurtiga qachon boraman?

Sahna yorishadi. Mutlaqo holdan toygana askarlar sahnaning u yer-bu yerida dumalab yotibdi. Sahna o'rtasida turgan Doro Shiroqni yoniga chaqiradi.

Doro:

Shiroq, askarlar och, suv, nonimiz yo'q,
Hamon biz manzilga yetib kelmadik.
Qara, askarlarga, holdan toyishgan,
Yeti kun bo'ldiki, tinim bilmadik.

Shiroq:

Yetib keldik manzilimizga,
loyingda tur va eshit so'zim.
Biz sahraning o'rtasidamiz,
Tan ol, seni yengdim bir o'zim.

Ko'zimga boq, ko'zimga, Doro,
To'rt taraf ham yeti kunlik yo'l.
Sen yurtlarni cho'l qilgan eding,
Endi qabring bo'lajakdir cho'l!

*Shiroq baland ovozda qah-qah urib kuladi.
Doro unga qaragancha qotib turibdi.*

Yovsarkardasi:

Voh, sezgandim, ayrgan edim ham,
Yuragim g'am-anduhga botgan.
Bugun bizga sodiq bo'lolmas
Kuni kecha o'z yurtin sotgan.

Shiroq:

Ha-a, sarkarda, sen ham mag'lubsan,
To'rt tarafing yantoqzor, tikan.
Bil, senlarni yetaklab kelish
Qo'y boqishdan osonroq ekan.

Shiroq yana baland ovozda kuladi va gapida davom etadi.

Shiroq:

Borsang ham yengilar eding baribir,
Bu yurtni siylagan azaliy olam.
Askarlari haqda o'ylab ham yurma,
Kuchlaring yetmadi cho'poniga ham.

Doro:

Davlatimning yarmisi senga,
Agar bizni qutqara olsang.
Yo boshingni chopib tashlayman,
Ajabmas, bir tunda boy bo'lib qolsang.

Shiroq:

Yer dumaloq ekan rostdan ham,
Doro bir cho'ponga qutqar, deb tursa.
Yo tavba, yo tavba, hech kim ishonmas,
Qani endi buni hukmdor ko'rsa.

Boshingga yostiq qil tillolaringni
Va qabringning yoniga qo'ygin.
O'zi rostdan Doro sennimsan?
Hayronman, nimangdan qo'rqishgan.

D o r o :

Sen mendan oldinroq o'lishing kerak,
Qatl qiling uni, qatl, qatl, tezroq!

*Shiroq shaxt bilan qilichni Doroning bo'yniga
tiraydi va kutilmaganda tashlab yuboradi.*

S h i r o q :

Yo'q! Sen qiyinalib o'lishing kerak,
Toki his qil mag'lubiyatni.
Men ketaman, ketaman, qara,
Vatan qilib abadiyatni.

*Shiroq chuqur nafas oladi va qarshisida qilich
ko'tarib kelayotgan yov sarkardasiga qarab gapi-
radi.*

S h i r o q :

O'lim bilan qo'rqitilmaysan,
Qara, yonib turibdi ko'zim
Va senlarni yengmoqlik uchun
Quloq-burnim kesganman o'zim.

Jon oqib borardi jarohatimdan,
Men piyoda keldim, behazil.
Qon qolmagan tomirlarimda,
Qasos oqdi undan muttasil.

Hukmdorim o'zim ko'ndirdim,
Oh, og'riq azobi o'tdi jonimdan.

Vatanimda gullar o'sajak
Tuproq'iga tomgan qonimdan.

Men jonimni berib bo'lganman,
Ishon, bundan ko'ngling to'lmaydi.
Shunday bo'lib kelgan qadimdan,
Qahramonlar sira o'lmaydi.

*Sarkarda Shiroqqa qilich uradi. Momaqaldiroq
qarsillab, chaqmoq chaqadi. Sahna qorong'ula-
shadi.*

YETTINCHI KO'RINISH

Sahna yorishadi.

Shiroqning kulbasi. Sahna ortidan "qur-ey-qur-ey" degan ovoz va qo'y-qo'zilarning ma'rashi eshitiladi. Shu payt sahnaga Shiroq (Shiroqning rolini o'ynagan aktyor hech qanday jarohatsiz, cho'pon tayog'ini beliga ko'ndalang qo'ygancha) chiqib keladi va qumg'ondan choy quyib ichadi. Biroz vaqt o'tib uzozdan Arslon boboning ovozi eshitiladi.

Arslonbobo:

Bunyod, hoy Bunyod, qayerdasan, bolam,
Nega javob bermaysan, senga yetib
bormasmi nolan?

Bunyod:

Labbay, bobo, chaqirdingizmi?
Biroz o'yga tolib qolibman.
Kecha tunda uxlay olmadim,
Shu sababmi, charchab, tolibman.

Arslonbobo:

Kun og'ganda ozgina mizg'ib,
Tushimda otangni ko'ribman.
Uzuk berib ketdi qo'limga,
Men esa qaqgayib turibman.

Demak, seni uyqlashim kerak,
Otang bergan uzuk – to'yga ishora.
Seni uyqlab qo'yib, otang oldiga
Yorug' yuzda borsaydim, zora.

Rahmatli ajoyib yigit edi-da,
Yurtga yurtin qaytardi o'g'lon.
Yigirma yil o'tdi oradan,
Fuqaro tinch, barcha sog'-omon.

Bunyod, sening otang o'lmagan,
O'g'lim xuddi senga o'xshaydi.
Men otangni qayta o'stirдим,
Otang endi senda yashaydi.

Bunyod:

Tuproq, toshlar, jilg'alar, soylar,
Gulmi, tilkan yoki bir xasmi.
Mana shu yer, osmon, borliqning bori,
Aytimg, mening otam emasmi?

Otam bergan tayoq,
Yo'q,
Bu ozodlik,
Bu menga berilgan ishonch, chamamda.
Otam yurtga jonini bergan,
Demak, otam yashar Vatanda!!!

Darvesh:

Xulosa shunday, do'stlar,
Tunsiz tonglar o'tmaydi.

Chin o'g'lonlar hech qachon
Vatanini sotmaydi.

Cho'pon yigit Shiroq ham
Nomus derdi, or derdi.
O'ylab ham o'tirmadi,
Vatan uchun jon berdi.

Jon berdi, o'lgani yo'q,
(*Bunyodga qarab*):
Faqat qayta ulg'aydi.
Axir shunday, qadindan,
Qahramonlar o'lmaydi.

Toshkent, 2017-yil.

TO'MARIS

Bir parda, yetti ko'rinishi she'riy pyesa

QATNASHUVCHILAR:

To'maris – massagetlar malikasi.

Sparangiz – To'marisning o'g'li.

Marvarid – To'marisning xizmatkori.

Qariya – massagetlar maslahatchisi.

Massagetlar sarkardasi.

Binatsha – massagetlar maslahatchisining
qizi.

Kurush – Eron shohi.

Eron sarkardasi.

Eron shohi maslahatchisi.

Eron elchilari.

BIRINCHI PARDA BIRINCHI KO'RINISH

Massagetlar qabilasida o'la tahlikali payt. Ahamoniylar shohi Kurush Parfiya, Marg'iyo va Baqtriya bosib oldi. Endi Kurush massagetlarga hujum qilishi kundek ravshan. Bu payt massagetlar qabilasiga malika To'maris sardorlik qilardi.

R o v i y:

Juda uzoq zamonda,
Massagetlar tomonida
Malika, uning xalqi
Yashar edi omonda.

Yurti purvigor edi,
Malikasi unga zeb.
Ammo g'amga botishdi
Eron shohi Kurush deb.

Kurush ochko'z, qattol shoh,
Ko'p yurtini bosib oldi.
Olimmagan bir diyor
Faqat massaget qoldi.

Ammo go'zal bu yurtda
Hamon qushlar kuyardi.
Kurush jang qilmay turib
Egallashni o'ylardi.

Malika To'marisning
Soddil ko'ngli sezardi.
Kurushning nomardligi
Yuragini ezardi.

Jang qilsa-ku yutaradi,
Qani, kelib ko'rsin-chi.
Ammo shubha orttirdi
Erondan kelgan elchi.

Sahnada malika va xizmatchilari suhbatlashib o'tirishibdi. Sahna ortidan xabarchining ovozi eshitiladi: "Eron shohi Kurushning elchilari tashrif buyurdi". Malika xizmatchilariga qaraydi va biroz sukutdan so'ng:

T o ' m a r i s:

Ko'nglim sezgandi avval,
Magsadi menga ayon.
Sulh tuzmoqchi men bilan,
Shuni etmoqchi bayon.

Yo'q, bo'y egmam, aksincha,
Jangga o'zim borgayman.
Mayli, ayting kutishsin,
Hozir orom olgayman.

Boshqalar sahnadan chiqib ketadi. Malika-niing bir o'zi qoladi. U o'z-o'ziga gapiradi.

Menga to'g'ri yo'l ko'rsat,
Ilini bergin ko'nglinga.
Sulhga izn bermoqlik
Rozilikdir o'limga.

Jang qilmoq ham mushkul ish,
G'alaba amrimahol.
Qanday jangga boraman,
Qo'llarimda yo'q majol.

Sparangiz hali yosh,
O'rgatilmagan o'tdek.
Tangrim, menga yordam ber,
Yo'l topmay toshdek qotdik.

Sahna ortidan Marvaridning ovozi keladi.

Marvarid:
Malikam!

To'maris:
Kel, Marvarid, kiraver,
Nega xursandsan bu payt?
Meni ham xursand qilgin,
Nima bo'ldi, tezroq ayt.

Marvarid:
Xo'p, aytaman, malikam,
Baxt shamoli yelibdi.
Erandan bizga yovmas,
Soyg'a-salom kelibdi.

To'maris:
Quyosh nomiga qasam,
Bu qanday hiyla bo'ldi.
Nayrangboz Kurushni deb,
Yurakka qonlar to'ldi.

Marvarid:
Quvonarsiz, malikam,
Sababini bilsangiz.
Hammasi yaxshi bo'lar,
Yaxshi niyat qilsangiz.

To'maris:
O'yin bilma hayotni,
Buzma fikr-u-o'yimni.
Qabilam, xalq taqdiri,
Nima, senga o'yimmi?!

Mastahatchilarni chorla,
Elchilarga ham aytgin.
O'zing qo'shinga borib,
Sarkarda bilan qaytgin.

Bunda sir bor, bilaman,
Kurush boylik qasdida.
Tezroq chorla barchani...

Marvarid:
Amringiz bosh ustiga.

Marvarid chiqib ketadi. Birozdan so'ng maslahatchilar, ularning ortidan Eron shohining elchilari kirib kelishadi. Malikaga salom berib, hamma o'z joyiga o'tiradi. Malika elchlarga qarab so'z boshlaydi:

To'maris:

Xo'sh, gapiring tinglayman,
Ko'zingizda yo'q uchqun.
Kelmagandirsiz faqat
Sovg'a ulashmoq uchun.

Elchilar boshlig'i o'rnidan turib malikaga ta'zim qiladi va so'z boshlaydi.

Elchi:

Yurtingizni sayr etdim,
Sizdek go'zal, ulug'vor:
Qon to'kilmas bu yurtda,
Sizdek malikasi bor.

To'maris:

Xushomadni suymayman, ammo
Siz haq gapni aytingiz, rahmat.
Lutf ko'rsatib, bayon etsangiz,
Fikringizni tinglay, marhamat.

Elchi:

Eshitganimdek, mardsiz,
Sizga ham katta rahmat.

Podshohimiz Kurushdan
Olib keldim sizga xat.

Natni olib malikaga uzatadi. Malika xatga qo'l qo'yamaydi.

To'maris:

Olib o'qi maktubni, Bonu,
Ilmaylik-chi, ne tilar Kurush?
Agar bizni norizo qilsa,
Ertatongda boshlaymiz urushi!

Bonu ismli kanizak o'rnidan turib malikaga ta'zim qiladi. So'ng borib elchining qo'lidagi maktubni oladi. Yumaloqlangan maktubni ochib, o'z ichida o'qiydi. So'ng hayrat nazari bilan malikaga qaraydi. Uning hayajonlanayotgani yuz ko'zidan, qarashlaridan sezilib turadi.

To'maris:

Nima bo'ldi, ranging oqardi,
O'lim xabarini qo'lingdagi xat?
Qo'rqma, qalitrama, massaget-san sen,
Maktubning ma'nosi, mazmunini ayt?

Bonu:

Malikam! Malikam!..

To'maris:

Nima malikam?
Bonu, seni nima jin urdi?

Tezroq o'qi, turqingni ko'rib,
Yuragimga g'alayon kirdi.

Bonu:
U shunday demishki...

To'maris:
O'qi, ne demish?

Bonu:
... Sizga bag'ishladim butun dunyoni,
Yer-u osmon bo'lar sizga poyandoz.
Bitta qarashingiz, bir nigohingiz
Bahosiga bersam, podshohligim ozi!

Ikki davlat hukmin sizga beraman,
Qaro xolingizga baxshida jonim.
Agar siz qo'lmini qaytarماسangiz,
Baxshida etgundir bor xonumonim...

To'maris:
Bas! Bonu! O'qima, bu yog'i ayon,
Firib to'nin kiyimish bu qatol Kurush.
Sarkardani chorlang qoshingga tezroq,
Ertaga bo'lajak beayov urushi!

*Malikaning gaplaridan so'ng hamma sarosi-
maga tushib qoladi. Maslahatchilar o'zaro shivir-
lashadilar. Birodan so'ng oraga cho'kkan jimlik-
ni elchi buzadi.*

Elchi:
Malikam, shoshmang, mayli,
Obdon o'ylang, kutamiz.
Umid qilaman yurtga
Xush xabar-la ketamiz.

To'maris:
Kutmang, bo'ldi, javobim aniq,
Ketavering, demak, jang bo'lgay.
Maslahatim, Kurush chekinsin,
Gar jang bo'lsa, muqarrar o'lgay!

Elchi:
Siz donosiz, shubhasiz, ammo
Qaror qilmang avom singari.
Yolg'iz sizning kibringiz sabab
Ozor chekar xalqingiz bari.

To'maris:
Haddingni bil, elchi, sen kim bo'libsan,
Kimning huzurida ekaningni bil.
Or-nomusim ustun, yurtim undan ham,
Xabarimni yetkaz, vazifangni qil.

*To'maris qo'li bilan elchiga chiqib ketishni imo-
qiladi. Elchilar chiqib ketgach, maslahatchilar-
dan biri gap boshlaydi.*

Maslahatchi:
Meni ma'zur tuting, malikam, ammo
Yana bir bor o'ylab ko'raylik.

Qudratimiz ortar birlashsak,
Qon to'kmaylik, davron suraylik.

Maslahatchi gapini tugatib malikaga qaraydi. Malika javob qaytarmaydi. Shu payt sahnaga Marvarid va sarkarda kirib kelishadi. Maslahatchi esa boshqa amaldorlarga qarab, malika eshitmaydigan past ovoza gapiradi.

Maslahatchi:

Jang bo'ladi, demak, eshitingizlar,
Kurushtir bizdan kuchli, bu ham sir emas.
Bugun baxt qushini quvdik o'zimiz,
Chin malika xalq der, or-nomus demas.

Uning gapini eshitgan sarkarda yugurib borib
bo'ynidan bo'g'ib oladi.

Sarkarda:

Qanday hadding sig'di, yaramas,
Sen kimsanki, tik gapirasan?
Sendaylarni jazolash kerak,
Umring bitdi, hozir o'lasan.

Sarkarda maslahatchini bo'g'a boshlaydi.

To'maris:

Sarkarda..

Sarkarda maslahatchini bo'g'ishdan to'xtaydi
va iltirib yuboradi. Maslahatchi o'tirib qoladi.

To'maris:

Men to'g'ri yo'l tutdim, sizlarni o'ylab,
Ibu ayyor Kurushning so'zlari yolg'on.
U qattol yurtini egallab olgach,
Bizning barimizni qillar begumon.

Men faqat o'zimni o'ylaganim yo'q,
Xalqimdan ustumas qiy matsiz jonim.
Birga bo'lsak, undan qudratiroqmiz,
Daryodek mavj urib oqmoqda qonim.

Sarkardani bejiz chorlaganim yo'q,
Askarlarni tayyorlang jangga.
Jang qilamiz, mayli, jonimiz
Qurbon bo'lsin Ona vatanga.

Malika o'rnidan turib sahnadan chiqib ketadi.
Sahnaga og'ir musiqaga sadolari ostida qorong'ula-
shadi.

IKKINCHI KO'RINISH

To'maris sarkarda bilan suhbatlashib o'tiribdi.

Sarkarda:

Kurush Marg'iyonada ekan,
Biz ham tayyor bo'ldik hammamiz.
Faqat izn bersangiz, bo'ldi,
Bugun tunda yo'lga chiqamiz.

Marvarid:

Malikam, ma'zur tuting,
Shahzoda ovdan qaytdi.
Kuting desam, ko'nmadi,
Juda zarur, deb aytdi.

To'maris:

Ruxsat, kirsin yonimga.
Nima dardi bor ekan?
Yuragim sim-sim og'ri,
Unga sanchilgan tikani!

Sparangiz kirib keladi. Sarkardaga salom berib, onasiga ta'zim qilib, so'z boshlaydi.

Parangiz:

Ovda edim, boribman bekor,
Jang bo'lishi edi begunon.
Mal'un Kurush haddan oshibdi,
Shubhasiz, u qolmagay omor.

Sarkarda:

Ha, shubhasiz, omor qolmaydi,
Chunki jangga o'zim boraman.
Hov vujudim o'tga aylangan,
Boshini qilichsiz uzib olaman.

Sparangiz:

Mardligingiz tahsinga loyiq,
Aqlingizga qoyil qolaman.
Shu gal menga bering qo'shinni,
Jangga o'zim boshlab boraman.

To'maris:

Hali yoshsan, izn bermayman,
Ma'n qilaman, aslo yo'q ilinj.
Sen bu jangga aslo bormaysan,
Quyosh haqqi, menga qasam ich.

Sparangiz:

Sizning mehringizni tuyib ulg'aydim,
U juda ham qaynoq, taftida kuydim.
Nega menga ishonmaysiz siz?
Otamayin qabog'im uydim.

Qafasdagi sherga o'xshayman,
Itdek beozorman qafas kuchidan.
Qo'rqaman, kun kelib na'ra tortmasdan
O'lib ketmasaydim qafas ichida...

Sparangiz jahl bilan sahnadan chiqib ketadi.
To'maris hayratta qotib qoladi. Biroz jimlikdan
so'ng sarkardaga qarab so'zlaydi.

To'maris:

Marhum otasidek juda isyonkor,
Umri o'xshamasin, aytdim ko'p bora.
Jangga borsin pahlavonlardek,
Yubormoqdan yo'q boshqa chora.

Sarkarda, bor sizga o'tinchim,
Sizga aytay, tinglang nolamni.
Jangda aslo yolg'iz qoldirmang,
Qalqon bo'ling, asrang bolamni!

Sarkarda:

Malikam, amringiz bosh ustiga,
Gard tegmaydi Sparangizga.
Shahzodani ko'rganingizday,
Olib kelib beraman sizga.

Sarkarda sahnadan chiqib ketadi. Sahnada or-
tidan askarlarning hayqirig'i eshitiladi va vahi-
matli musiqi yangraydi. Gurs-gurs qadam tovush-
lari eshitila borib so'nadi. Sahnada sekinlik bilan
nim qorong'ulashadi. To'maris sahnada boshini
quyi solgancha o'tiribdi. Birozdan so'ng qilichlar
jaranglari va askarlar hayqirig'i eshitiladi. Bu jarang
bo'layotganligiga ishora. Ovozlar sekin uzog'la-
shadi, sahna yorisha boshlaydi. Musiqi va ovoz

lar to'xtaydi. To'maris Marvaridning "Malikam"
degan hayqirig'idan cho'chib tushadi.

To'maris:

Kel, kiraver, sodiq Marvarid,
Xushxabar ayt, ko'nglimni yorit.
Kurush yengildi de, sen yuragimdan
Tog'dek bosib yotgan g'amlarni arit.

Marvarid:

Hozircha xabar yo'q, malikam,
Besh kundirki, tuz ham totmaysiz.
Axir, sizdan xavotirdaman,
O'tirasiz, aslo yotmaysiz.

Marvarid qo'lidagi patnisni stol ustiga qo'ya-
di va jomga suv soladi. To'maris o'rnidan tu-
rib, jomni qo'lga oladi, shu payt sahna ortidan
Sparangizning "ona" degan ovozi eshitiladi.
To'marisning qo'lidagi jom yerga tushib ketadi.
Sparangiz askarlar kiyimida yugurib kiradi va
sahna yorishib ketadi. Uning ortidan sarkarda
kiritiladi va eshik oldida to'xtaydi. To'maris
Sparangizni mahkam quchoqlaydi.

To'maris:

O'g'lim, pahlavonim, ko'zim qorasi,
Eng baxtli insonman, hozir, ayni payt.
Sog'-salomat qayting jang maydonidan,
G'alaba qildim de, g'olibman deb ayti

Sparangizi:

G'alaba qozondik, qaytdik muzaffar!
Qayg'urmang, ko'nglingiz quvonchga to'lsini!
Omonligim sarkarda sabab,
Baxtimizga doim sog' bo'lsini!

To'maris sarkardaning oldiga boradi.

To'maris:

Boshimning egasi, bosh egam aytgan,
Sarkardaga ishon, sarkarda mard deb.
Umidlarim o'layotgandi,
Umidimni berdingiz qaytib.

Men sizdan bir umr jon qarzdorman,
Doim ishonchimni oqlay olgansiz.
Marvarid, tezroq bor, dasturxon tuza,
Dam olinglar charchab, tolgansiz.

Sarkarda:

Men tan berdim Sparangizga,
Juda ham mard ekan massagetga xos.
Sparangiz bizni boshqardi,
Biz buyruqni bajardik, xolos.

To'maris:

Kimsan Kurush, chekinib, gochsa,
Besh kun jangda o'tdek yondingiz.
Massagetlar sizdan qarzdor,
Siz Vatanni saqlab qoldingiz.
Sho'x musiqa yangrab, sahna qorong'ulashadi.

UCHINCHI KO'RINISH

To'marisning qarorgohi. Majlis bo'lmoqda.

Maslahatchi:

Omadimiz keldi bu safar,
Ibu hali g'alaba degani emas.
Quyosh haqqi, so'zimi tinglang,
Diqqat qiling so'zinga bir pas.

Mallkam, biznimas, siz xalqni o'ylang,
Kurush kelsa, qirib tashlaydi.
Uning qo'li baland, askarlari ko'p,
Ibiz rozi bo'lmasak, keyin boshlaydi.

Sarkarda:

Kurushdan qo'rqqanim yo'q,
Lek xavotir olyapman sizdan.
Ushbu jangdan mening ko'nglim to'q,
Shubha bosar meni bu so'zingizdan.

Maslahatchi:

Menga qara, keksa xaloskor,
Haqiqatni aytapman faqat.
Kinoyali bu so'zlaringga
Chidolmayman, yo'q menda toqat.

Vazifamni bajarmoqdaman,
To'g'ri yo'l ko'rsatmoq – mening vazifam.

Gar malika rozi bo'lmasa,
Asrab qololmaysan bu xalqni sen ham.

Men jangingga qo'shlganim yo'q,
Sen ham jim tur majlis chog'ida.
Yashab yurganigini biz ham bilamiz
Malikaning qaramog'ida.

Sarkarda o'rindan turib ketadi.

T o' m a r i s:

G'azabingizni soching
jang paytida borini.
Birga bo'lsak, uzamiz
Shum Kurushning dorini.

Hozir mushkul vaziyat,
Yuragimga sig'mas qil.
Maslahatchi, sen esa
O'shqirma, haddingni bil.

Men o'zim yonmoqdaman
Qabilamning ko'yida.
Erta tongda jang bo'lgay
Amudaryo bo'yida.

Maslahat solmoq edim,
Ko'p ekan sizda gumon.
Endi fikrimdan qaytdim,
Bas, endi majlis tamom.

TO'RTINCHI KO'RINISH

*Maslahatchining uyi. Bonu xomush o'tiribdi.
Marvardid kirib keladi.*

M a r v a r i d:

Salom, aziz dugonam,
Ilormay qo'yding yonimga.
Mendan bir ayb o'tdimi,
Yo tegdimmi joningga?

Sparangiz kelibdi, bildim,
Uchrashuv qanday bo'ldi?
Nega xomushsan, gapir,
Kim seni xafa qildi?

B o n u:

Quyosh har tong olamni qaytadan yaratarkan,
Muhabat bilan boqsang, gul ifor taratarikan.
Er yigit shijoati, tangrining ijozati,
Sparangiz otamga sevishini aytarkan.

M a r v a r i d:

Sparangiz aytibdi, er yigit, mardlarga xos,
Ammo nega xomushsan, yuragingda qish, ayoq.
O'n bir yil kutding, axir, yo fikringdan qaytdingmi?
Nima bo'ldi, Bonujon, menga yuragingni yoz.

Bonu:

Yo'q, fikrimdan qaytmadim,
Quyoshga qasamim bor.
Axir, qanday chidayman,
Bir jonimga ming ozor.

Qarg'a ham mast bo'larmi
Atirgulning isiga?
Otam meni bermogchi
Eroning elchisiga.

Endi hammasi tamom,
Yo'l ko'rsat, men netaman?
Uch kundun so'ng kelarkan,
Men Eronga ketaman.

Marvarid:

O, bu qanday razolat,
Ko'nglim sezib yurgandi.
O'sha mal'un, yaramas
Seni qayda ko'rgandi?

Bonu:

O'sha tun o'z uyimga
Tun yarmida kelishdi.
Xizmat qildim ularga,
Uzoq suhbat qurishdi.

So'ng tong otmay barisi
Otga minib jo'nadi.

Ketish oldi otamdan
Mening qo'lim so'radi.

Marvarid:

O'sha kun haydagandi
Malikamiz o'zlari.
Shubha uyg'otdi menda
Sening ushbu so'zlaring.
Sahnaga maslahatchi kirib keladi.

Maslahatchi:

Salom, qizim Bonujon,
Salom, sodiq Marvarid.
Dugonang zerikandi,
Undan g'amlarni arit.

Qizim, mana buni ol, (Oltin tangalar solingan
tugunchani uzatadi.)

Bugun bozor bo'larkan.
Dugonang bilan aylan,
Zo'r zargarlar kelarkan.
Sahnaga sarkarda kirib keladi.

Sarkarda:

Chaqirtirgan ekan siz,
Yo keldimmi bemavrid?
Salom, qizim, Bonujon,
Salom, sodiq Marvarid.

Maslahatchi:

Yo'q, yo'q, ayni mavridi,
Bir aylanib kelishsin.
Zargarlar kelishibdi,
Shuni borib ko'rishsin.

*Maslahatchi va sarkarda o'tirishadi. Qizlar
chiqib ketadi. Maslahatchi gap boshlaydi.*

Maslahatchi:

Bilasizmi, sarkarda,
Mening ko'nglim juda g'ash.
Sparangiz jangga bormasin,
Axir, hali juda yosh.

Sarkarda:

Siri gaping shumidi,
Uchrashuvning sababi.
Jangga bormoq, jang qilmoq –
Pahlavonlar matlabi.

Maslahatchi:

Endi... Aytib bo'lmaydi,
Jang maydoni xavfli joy.
Sizga suv keltiraymi,
Changagansiz, hoynahoy.

Sarkarda:

Hay, mayli, yo'q demasdim,
Sal o'tmay kech ham kirgay.

So'ngra men qaytsam uyga,
Erta so'nggi jang bo'lgay.

*Maslahatchi ikki piyolada suv olib keladi. Ichi-
shadi.*

Maslahatchi:

Asosiy maqsadimni
T'inglang, etayin bayon.
Bo'lgan barcha voqea –
Sizga ham kundek ayon.

Sarkarda:

Qay voqea, qandayin maqsad?

*Shu payt sahnaga Bonu kirib kelib, o'tib keta-
di. Bonu uyga kirib ketgach, maslahatchi gap
boshlaydi.*

Maslahatchi:

Mana, sakkiz oy o'tdi,
Men tuproqqa tengdirman.
Sen jangdan aslo qo'rqma,
Sen qo'rqgan xavf mendirman.

Sarkarda:

Qanday tuproq va qanday xatar,
Senga nima qilmogda alam?
Men jangdan hech qo'rqmaganman, bas
Va qo'rqmasman, sendan sira ham.

Biroz turib tomog'ini changallaydi. Yaxshi nafas ololmayotgani ko'rinib turadi va ovozi bo'g'iqlikda.

Asli tuproq sendan ulug'roq,
Qotilga aylanding nafsing yo'lida.
Ammo juda uyat ish bo'ldi
Jon berishim xoin qo'lida.

Sarkarda yerga o'tirib qoladi.

Maslahatchi:

Menga ham osomonas, sarkarda,
Sakkiz oyki har kun ming o'ldim.
Ko'ndirmoqchi bo'ldim, ko'nmading,
Sen sababli men qotil bo'ldim.
Kurusht odil, dono shoh ekan,
Oqil qaror chiqarar har dam.
Hurmat qilib meni tinglashdi,
Uning farqi shudir sizlardan.

Sarkarda yerga yiqiladi va jon beradi. Shu payt shahzoda Sparangiz keladi, degan ovoz eshitiladi. Sparangiz kirib keladi. Maslahatchi yugurib unga peshvoz chiqadi va uyga kiritmaslikka urinib gap boshlaydi.

Maslahatchi:

Salom senga, mening shahzodam,
Dam olmoqchi bo'lib turgandim.
Bugun juda og'ir kun bo'ldi,
O'zi nima sabab kelganding?

Sparangiz:

lang oldidan kelayotgandim,
langga ketayapmiz erta ertalab.
Kelgan edim huzuringizga
Bonjunoning qo'llini so'rab.

Sparangiz gapira turib ko'zi yerdan yotgan sarkardaga tushadi. Maslahatchini qo'li bilan surib, sarkardaning yoniga yugurib boradi va o'ziga keltirmoqchi bo'lib yuziga uradi. Maslahatchi biroz qotib qoladi, so'ng o'ziga kelib, Sparangizga qarab gapiradi:

Maslahatchi:

(Yig'i aralash baqirib gapiradi.)
Voy-dod, endi nima qilamiz,
Taqdir qanday o'yin qilmoqda?
Sparangiz, o'g'lim, menga yordam ber,
Yuragim achishib, to'xtab qolmoqda.

Sparangiz qilichini chiqarib, maslahatchining bo'yiniga tiraydi.

Sparangiz:

Onam sizdan shubhada edi,
Yoningizni olibman bekor.
Bo'ldi, siz ham hozir o'lasiz,
Bahona to'qishga bo'lmang umidvor.

Maslahatchi:

Ey voh, buncha tuhmat yolg'iz boshimga, Mayli, meni o'ldir, ko'ngling bo'lsin to'q. Ammo quyosh haqqi qasam ichaman, Sarkardani o'ldirganim yo'q.

Sparangiz:

Unda kim o'ldirdi? Ayting rostini, O'zim kallasini uzib kelayin. Onamga ham yetkazish kerak, Hozir ayting tezroq, bilayin.

Maslahatchi:

Sarkarda uyimga kelib-ketgandi, Suhbatlashdik ancha, kayfi choq edi. Eshikdan chiqdi-yu, bir lahza o'tmay Mening ismim aytib, yordam ber, dedi.

Qarilik emasmi, yugur olmadim, Ko'rdim. Qochib ketdi to't-besh zo'ravon. Sarkardani sudrab uyga opkirdim, Menimcha, ularning barisi Eron.

Sparangiz qilichini joyiga soladi.

Sparangiz:

Meni afu eting, yoshlik qilibman, Yonib ketdim, bu holni ko'rib. Sarkardaning xunin olaman, Eronlarning barisin qirib.

Maslahatchi:

Onangga aytmay tur, jigirim, Aytasang, jangga o'zi boradi. O'g'il turib, onang jang qilisa, O'sha kundan yuzing qoradir.

O'g'ilimdekkan, senga ishonдим, Qara, axir kuchga to'lgansan. Sarkardaning ruhi yor bo'lsin, Sarkardamiz o'zing bo'lasan.

Sparangiz o'yilanib qoladi.

Sparangiz:

Rost aytasiz, mushkul vaziyat, Hozircha onamga aytamaymiz, mayli. Askarlarga bosh bo'lay desam, Onam bunga rozi bo'lmaydi.

Maslahatchi yerda yotgan sarkardaga qaray-dl va yig'i aralash gapiradi.

Maslahatchi:

Xoinlar, meni o'ldirmaydimi, Vujudimni alam tutmoqda. Marhum qanday sherimard edi, Yuragim achishib ketmoqda.

Yuragini ushlab, yerga o'tirib qoladi. Bu holat yolg'ondan bo'layotganini tomoshabin sezib

turadi. Sparangiz maslahatchini qo'ldan tutib turg'azadi.

Maslahatchi: (go'yo kasal odamdek bo'g'iyo ovozda)

Sen bu jangdan qaytganingdan so'ng Sarkardani dafn qilamiz. Onang bilan maslahatlashib, Undan keyin bir to'y qilamiz.

Maslahatchi yolg'ondan yo'taladi. Sparangiz unga suv ichiradi. Ketishga shaylana turib, o'smonga qaraydi.

Sparangiz:

Tong ham yorishay debdi, Endi menga ijozat. Men jangdan qaytgunimcha Onamga aytmaning faqat.

Maslahatchi:

Yo'q, onangga aytmayman, O'g'lim, ko'ngling to'q bo'lsin. Omad tilayman senga, Quyosh madadkor bo'lsin.

Sparangiz sahnadan chiqib ketishi bilan maslahatchi o'rnidan turadi va o'ziga-o'zi "jangdan g'olib qaytib, Bonuga uylanarmish" deb xunuk ovoza kuladi va birdan havo yetmay yo'talib

qoladi. Orgasiga o'g'irilib, boya Sparangiz o'ziga suv tutgan jomni hidlab ko'radi va yerga yiqiladi. Sahna qorong'ulashib, vahimali kuy yangraydi. Bonu "ota" deb baqirganidan so'ng musiqasi seklin-asta o'chadi.

BESHINCHI KO'RINISH

Kurushning qarorgohi, Kurushning maslahatchilari, sarkardalari va massagetlar qabilasiga borgan elchilar subhatlashib o'tirishibdi. Eron mamlakatlari xos kuy yangramoqda. Ularning ovozi eshitilmaydi. Kurush qah-qah urib kulib yulboradi va musiqasi ovozi o'chadi.

Kurush:

O'zini ham zaharlabdimi? Bir gunohdan asrabdi meni. Xoinlarning qismati shudir, O'z-o'zidan topar har neni.

Sen yolg'ondan chekinib qochsang, Ular vahshiy itdek quturgan. Xumdagi sharoibni sharbat deb o'ylab, Tonggacha bazm qilib o'turgan.

Sahroyi-da, qayerdan bilsin, Umrda sharoibni totib ko'rmagan. Sparangiz yoshligi sabab, Bu hiyla ekanin bilmagan.

Sen shirakayf qahramonlarni
Tongda borib qiyalmay qirding.
Asosiyi, Sparangizni
Asir qilib, olib keltirding.

Sarkarda, nayranging qo'l keldi,
Asosiyi, maqsadga yetdik.
Bir sandiq xazina sovg'a qilaman,
Qurbonlarsiz ularni yutdik.

Xizmatchilar, sarkandangizga
G'aznandan bir sandiq beringlar.
So'ngra asir Sparangizni
Huzurimga olib kelinglar.

*Ikki xizmatchi ta'zim qilib chiqib ketadi va
yana o'sha kuy yangraydi. Birozdan so'ng Spa-
rangizni qo'lida kishan bilan olib kirishadi.*

Kurush:
Sparangiz, jasur sarkarda,
O'yin emas Kurushning kuchi.
Menga qarshi chiqqanlar o'lgay,
Rahm qildim yoshliging uchun.

*Kurush Sparangizdan javob kutib biroz inda-
may turadi, Sparangiz churq etmaydi, Kurush
gapida davom etadi.*

Kurush:
Senga yana imkon beraman,
Yurting sira cheknagaydir g'am.
Mayli, o'zingni ham ozod qilaman,
Agar men onangga uylansam.

*Kurushning sarkardasi Sparangizning yoniga
hollib, qulog'iga so'zlaydi.*

EronSarkardasi:
Onangga hoziroq xat yozib yubor,
Bu imkonni kutganlar qancha.
Yo'qsa, meni o'ldirarkan, de,
Omading bor ekan, tirrancha.

Sparangiz:
Kishanlarni yeching!
Kurush kulib yuboradi.

Kurush:
Ha, bu boshqa gap.
Qog'oz-qalam keltiringizlar,
Dono ekan, topdim ko'nglini.
Sizlar nega qarab turibsiz,
Tezroq yeching uning qo'lini.

*Vahimali kuy yangraydi. Kurush qah-qah urib
kuladi va borib taxtiga o'tiradi. Sparangiz qo'li
kishandan ozod bo'lgach, egilib etigi qo'nijiga*

yashirilgan xanjalni olib o'z ko'ksiga uradi va yiqilib jon beradi. Hamma hayratda qoladi. Vahimali musiqa bilan sahna qorong'ulashadi.

OLTINCHI KO'RINISH

To'marisning qarorgohi. Sahnada Bonu, Marvarid va To'maris. To'maris Bonuga qarab gapiradi.

To'maris:

Nega shuncha gapni menga aytmading?
Hammasini asrab qoldim o'zim.
Otangdan bu ishni kutmagan edim,
Ichimdagi xoinni ko'rmapti ko'zim.

Bonu:

Men ham bilmagandim, qasam ichaman,
Bilganim – elchiga meni bergandi.
Soddaligim qursin, o'ylab ko'rmabman,
Otam, hech kimsaga aytma, degandi.

Barchasini ko'rdim o'sha tun,
Aytib berdim barin birma-bir.
Otam nomi xoinga chiqdi,
Yolg'iz qoldim, shun ekan taqdir.

Oraga jimlik cho'madi.

To'maris:

Mening o'g'lim hozir zindonda,
Uni o'ldirmaydi, foydalanadi.
Agar yurtga kelsa, barchani qirar,
Aytimg, nima qilay, ko'ksim qonadi.

Oraga jimlik cho'kadi.

To'maris:

Marvarid, hammaga xabar ber,
Hamma kelsin bog' atrofiga.
O'zimiz jang qilib boramiz,
Bardosh berolmayman farzand dog'iga.

*Marvarid va Binafsa sahnadan chiqib ketadi.
Parada ortidan olomonning ovozi eshitiladi.
To'maris ularga qarab gap boshlaydi, olomon jim bo'ladi.*

To'maris:

Shu tuproqda o'sdik, ulg'aydik,
Bugun yurtga xavf keldi, mana.
Chidaysizmi, dushmanlar kelib
Sizni toptab, qilsa tantana.

Juda ko'plar dedi, rozi bo'laver,
Xalqingdan ustunmi senga nomus-or?
Men zarra o'zimni o'ylaganim yo'q,
Bunga ishonmaslar, hozir ham bisyor.

Kurushning niyati chin emas edi,
Yurti egallamoq uning chin dardi.
Ayrim insonlarga mol-davlat berib,
Bizning oramizdan xoin chiqardi.

*Shu gapdan so'ng odamlarning shivirlashgan
noaniq gaplari eshitiladi.*

Jangdan bir kun oldin buyuk sarkarda
Jon berdi xoinlar qo'lida.
Sparangiz sarkarda bo'lib,
Chiqibdi dushmanning yo'liga.

Hiyla yo'li bilan asir olibdi,
Qo'l kelgan soddadi va yosh bo'lgani.
O'g'limni o'rtaga qo'yib shart qo'ydi,
Jang qilib borgayman boshin olgani.

Ikki jangdan ko'p qurbon berdik,
Askarlarim soni kamaydi.
Birga jang qilaylik, rozi bo'lsangiz,
Borimoq, qolimoq har inson mayli.

*To'maris gapini tugatgach, olomonning "Bo-
ramiz, jang qilamiz, Kurushni boshini olamiz"
degan gap-so'zlari eshitiladi. To'maris sahnaq
chiqib keladi. Marvarid malikaning qilich-qalqo-
nini tayyorlamogda.*

YETTINCHI KO'RINISH

*Kurushning qarorgohi. Kurush, maslahatchi-
lari va elchilar majlis o'tkazmogda.*

Elchi:

Ilrooz og'ir bo'lsa ham aytay,
Gulning tanasida bo'larkan tikan.
Shuningdek, bizning qarorgohda ham
Xabarchi, xoinlar, afsus, bor ekan.

Kurush:

U gulning tomirin qirgib tashlayman,
Shubhasiz, xoinning o'lishi tayin.
Kim qanday xoinlik qilibdi?
Ayt, hozir boshini uzib tashlayin.

Elchi:

Kecha To'marisga xabar boribdi,
Sparangiz o'lganin aytgan.
Hammasi fosh bo'lgach, u yerdan
Bizning ayg'oqchilar barisi gaytgan.

Sarkarda:

Xoimmas, bu xatni men yozdim,
Zero, bizdan ehtiyot bo'lsin.
Mahmadona o'sha malika
Shoh Kurushning kimligin bilsin.

Maslahatchi:

Sarkarda, bu ishini bekor qilibsan,
Endi aslo rozi bo'lmaydi.
Alamzada bo'lsa bu massagetlar
Uncha-bunchasini omon qo'ymaydi.

Kurush:

Bir tomondan, to'g'ri qilibsan,
Kimligimni bilib qo'yishsin.
Massagetlar nomim eshitib,
Qaltirashsin, mendan qo'rqishsin.

*Shu payt xabarchi kirib keladi va Kurushga
malika To'marisdan deb, maktub uzatadi. Kurush
uni elchiga beradi.*

Kurush:

Men ham sendan eshitgim keldi,
Massagetday tutay o'zimni.
O'qi, nima demogchi ekan,
So'ng aytaman Kurush so'zimni.

Elchi:

To'marining maktubini o'qiydi.
Qancha begunohlar qurbon bo'lishdi,
Sen esa qadadingni kerasan.
Oz qoldi, Tangrining oldida
Qanday qilib javob berasan?

Sheri mard farzandim qatl qilibsan,
Nima edi bu ishdan ma'ni?

Ko'ray, agar Tangri bor bo'lsa,
Seni qanday jazolaganin.

Butun xalqim ko'zida olov,
Jang bo'lsa, baringni o'zim qiraman.
Kurush, qon to'lmaylik, o'z yurtingga qayt,
Senga so'nggi imkon beraman.

Shusiz ham tanimda qancha musibat,
Har nafasim o'pkamni tilgay.
Amudaryo bo'yiga kelsang,
Quyosh haqqi, boshing kesilgay!

*Elchi "Massagetlar malikasi To'maris" deb xat-
ni tugatadi va biroz jimlikdan so'ng maslahatchi
so'z boshlaydi:*

Maslahatchi:

Juda ko'p diyorlar sizniki bo'ldi,
Yeti pushtingizga yetgulik davlat.
Qudratingiz ortmoqda kundan-kun sayin,
Jang qilmang, boriga qiling qanoat.

Kurush:

Nima deysiz, sarkardalarim,
Ketamizmi Turonni tashlab?
Ne desangiz, shunga ko'naman,
Men kelganman sizlarni boshlab.

Sarkarda:

To'g'ri, ko'p diyorlar bizniki bo'ldi,
Xazinaning yo'qdir adadi.
Ammo bir ayoldan cho'chib, chekinsak,
Nominimiz qo'rqoqqa chiqadi.

Maslahatchi:

Mardligingiz chegarasi yo'q,
Sarkardasiz, juda dovyurak.
Ammo hukmdorim, eslatib qo'yay,
Oqil shoh to'xtashni bilishi kerak.

Kurush:

Haddingni bil, ahmoq qariya,
Juda o'sib ketipti tiling.
Sen oqil-u, men telbamanni?
Soqchilar, bu cholni zindonband qiling.

Vahimali musiqa yangraydi. Sahna qorong'ulashadi. Sahna ortida askarlarning hayqirig'i eshitiladi. Birozdan so'ng sahna chiroqlari o'chib-yona boshlaydi. Musiqqa balandlashib boradi va bir necha daqiqadan so'ng sahna ortidan "g'alaba-a-a" degan hayqirig' eshitiladi. To'maris harbiy kiyimda, bir qo'lida qilich, bir qo'lida mesh bilan sahnaga kirib keladi va so'z boshlaydi.

To'maris:

Bu Tangrining inoyatidur,
O'zidandir har qanday ilini.

(Qo'lidagi meshni ko'taradi va unga qarab)

Kurush, sen hech qonga to'ymagan eding,
Mana, endi to'yguningcha ich.

*Meshni yerga tashlaydi va tepib yuboradi.
To'maris chiqib ketgach, sahna qorong'ulashadi.*

Ro'viy:

Ko'rdingiz, azizlarim,
Gunohga jazo tayin.
To'maris berdi imkon,
Kurush keldi atayin.

To'maris g'olib keldi,
Endi xalqi chekmas g'am.
Vatan uchun jon fido,
Shahid ketdi o'g'li ham.

Qahramonga aylandi
Marhum o'g'li, o'zi ham.
Xalq kuch oldi jang chog'i
To'marisning kuchidan.

Ayol, ammo er kabi
Yondi jang maydonida.
Vatani, xalqini deb
Kechgan edi jonidan.

Yovuzlar yuzga kirar,
Ammo bir kun o'ladi.
Jon bersa ham botirlar,
Mangu tirik bo'ladi.

Tamom.

Toshkent, 2018.

USTOZ

Bir parda, yetti ko'rinishli drama

QATNASHUVCHILAR:

Qodir domla – 58–60 yoshlarda. O'qituvchi.

Farog'at yanga – 55–58 yoshlarda. Qodir domlaning xotini.

Abdulla – 16–17 yoshlarda. Qodir domlaning o'quvchisi.

Hokim – 40–45 yoshlarda. Baquvat, kelishgan kishi.

Malika Shavkatovna – 35 yoshlarda. Xalq ta'limi bo'limi xodimi.

Muzaffar – 35–40 yoshlarda. Abdullanning boy amakisi.

Saida ona – 65–70 yoshlarda. Muzaffarning onasi.

Sobir – 30–35 yoshlarda. Tadbirkor. Qodir domlaning o'quvchisi.

Sahobiddin – 30–35 yoshlarda. Tadbirkor. Qodir domlaning o'quvchisi.

Xayrulla – 30–35 yoshlarda. Tadbirkor. Qodir domlaning o'quvchisi.

Zafar – 30–35 yoshlarda. Tadbirkor. Qodir domlaning o'quvchisi.

Nasiba – 25–30 yoshlarda. Qishloq shifokori.

Birinchi mehmon – 45–50 yoshlarda.

Ikkinchi mehmon – 40–45 yoshlarda.

Kotiba - 22-25 yoshlarda. Hokimning kotibasi.

Jurnalistlar, operatorlar va boshqa kutuvchilar.

Choyxonachi.

BIRINCHI PARDA BIRINCHI KO'RINISH

Qodir domlaniy uy. Sahn o'rtasida so'ri, sahna chetida daraxt.

Farog'at yanga: Voy o'lmasam, dadasi, tuni bilan uxlamadingizmi?

Qodir domla: (Cho'chib tushadi va yopqasiga tuflagan kishi bo'ladi.) O'lma, xotin, o'lma. Lekin meni ham o'ldirma, naq odamning yuragim yoritib yubording-a.

Farog'at yanga: Sizni o'ylab, sog'ligingizga achinib gapirayapman, dadasi.

Qodir domla: Rostdan ham menga achinayotgan bo'lsang, bor, achchiqina ko'k choy damlab kel. Ishimni tugatay deb qoldim. Keyin ketaman. Boradigan joylarim bor.

Farog'at yanga sahna ortiga o'tadi. Qodir domla daftar-kitoblarni yig'ishtirib, o'rnidan turadi va sahna chetida turgan obdastadan yuz-qo'lini yuvadi. Bu orada Farog'at yanga choy damlab kelib, xontaxtaga qo'yadi.

Farog'at yanga: Keling, dadasi, o'tiring, choy damladim.

Qodir domla kelib o'tiradi.

Qodir domla: Qani-qani. (Choydan ho'playdi.) Xotin, qo'ling shirin-da, birovlar, fa-lonchi oshni sayratadi, deb gapirishadi. Ammo-lekin sen choyni ham sayratib yuborasan. (Ikkalasi miritqib kulishadi.)

Farog'at yanga: Kecha juda charchaganim uchun so'ramabman ham. Abdulla jonning ishi hal bo'ldimi?

Qodir domla: Bugun tuman markaziga boraman. Rahbarlarga uchrashib, masalani hal qilib kelaman.

Farog'at yanga: (Biroz o'ylanib turib) Dadasi, shu shogirdingiz ham xuddi o'zingizga o'xshaydi-ya. Biram tirishqoq, aytganini qilmasa qo'ymaydi.

Qodir domla: Ey, xotin, Abdulla jonda oddiy bilim ko'nikmasi emas, tug'ma iste'dod bor. Oliy matematika misol va masalarini ham kiprik qoqmay yechib tashlayapti. Sinfdoshlari kalkulyatorga yozib bo'lguncha, u o'n xonali sonlarni xayolda hisoblab tashlaydi. Tunov kuni fizika ustozlari Shokir bilan gaplashuvdim. Al-lambalo ixtirolar qilib boribdi. "Abdullajonning sinfga darsga kirishga cho'chiyman, murakkab savollar berib, uyaltirib qo'yadi", – deydi. (Biroz o'ylanib turib) Uning iqtidorini ko'rib, Londonda olib qolishlari ham mumkin.

Farog'at yanga: Mushundayligidan bechora bolaning ko'zini ochirmay o'qitasiz. Esingizdami, quyi sinfigida oldimga kelib: "Muallimga aytib, tinch qo'ysin, ko'chaga o'ynagani chiqsam ham savol beraveradi. Javob bermasam, jo'ralarim bilan o'ynagani qo'ymaydi", – deb yig'lab keluvdi. O'shanda onasi bilan rosa kulishgandik.

Qodir domla: Esimda, o'shanda men ham rosa kulgandim.

Sahnaga Qodir domlani o'quvchisi Abdulla ustozini chaqirib kirib keladi.

Abdulla: Ustoz... Yanga... Assalomu alaykum, ustoz, bezovta qilmadimmi?

Farog'at yanga: Kel, kelaver, Abdulla. (Qo'li bilan so'riga ishora qiladi.)

Qodir domla: Seni kutib o'tiruvdim. Endi bu yog'iga yaxshilab tayyorlanishimiz kerak. (Ikki so'riga o'tirishadi.) Sen bolani qulog'ingdan tortish kerak, kecha onang yig'lab keldi. "Otam bo'lganda pul topib, London olimpiadasiga jo'natar edi", – deb san. Ahmoq bola, o'zi onangning ko'ngli yarim bo'lsa, shuni o'ylamadingmi? Undan ko'ra jiddiyroq tayyorlan, pul haqida o'ylama. Kecha onangga ham ayt-dim, bugun tuman markaziga tushib, bu muammoni hal qilib kelaman. Oddiy qishloq bolasi London olimpiadasiga yo'llanma olsa-yu, yordam qilishmaydimi, qilishadi, albatta, yordam qilishadi, uqdingmi?

Abdulla: Ha, tushundim. Rahmat, ustoz. (Biroz jimlikdan so'ng) Kecha bergan misol va masalalaringizning hammasini yechib keldim. (Sumkasidan daftarlarni olib uzatadi.) Yechishga yechayapman-u, ichimdagi hayajonni bosishga kuchim yetmayapti.

Domla ko'zoynagini taqib, daftari tekshirib qaytib boradi.

Qodir domla: Hayajon bo'lgani yaxshi, u odamni mas'uliyatliroq qiladi. Formulalarni-chi, yodlay oldingmi?

Abdulla: Yodladim, faqat o'ttiz yettinchi sahifadagi formulaga tushuna olmayapman. Kecha maktabda aytganingiz bo'yicha ishladim, javob yetti xonali son chiqishi kerak edi. Lekin chiqmayapti.

(Shu o'rinda doskaga eng murakkab misollar va formulalar yoziladi.)

Qodir domla: Nega chiqmas ekan? (Daf-tarlarni bir chetga qo'yib, Abdullaning yoniga ketadi.) Qani, o'ttiz yettinchi sahifani och-chi, birga ko'ramiz. Avval aytganimday, savollarni e'tibor bilan o'qisang, javobning ellik foizi savol ichida yashiringan bo'ladi.

To'satdan uy ichidan domlarning xotini Farog'at yanganing baqirgan ovozi eshitiladi. Usto-z-shogird cho'chib tushishadi.

Farog'at yanga: Dadasi, tez bu yoqqa qarang, Ergashjonning mazasi bo'lmayapti.

Qodir domla o'rnidan turib, sahna ortiga o'tib ketadi. Sahna ortidan uning ovozi eshitiladi.

Qodir domla: Abdulla, tez chop, qo'shni yangangni, Nasiba do'xtirni chaqirib kel. Ergash akamning mazasi bo'lmayapti ekan, degin. Tez kelsin.

Abdulla: Xo'p bo'ladi.

Abdulla sahnaning boshqa tomonidan yugurib chiqib ketadi. Qodir domla ichkariga kiradi. O'tra-

dan biroz o'tib sahnaga Abdulla va Nasiba do'xir shoshib kirib kelishadi. Nasiba uy ichiga kirib ketadi. Shu vaqt Qodir domla chiqib, Abdullani chetroqqa olib gapiradi.

Qodir domla: Abdulla, bolam, sen uyingga borib mashqlarni takrorlab tur. Keyin ko'rishamiz.

Abdulla: Xo'p bo'ladi, ustoz.

Abdulla so'ri ustidagi daftar-qalamlarini olib, chiqib ketadi. Ichkaridan Nasiba Farog'at yanga-ga gapirgancha chiqib keladi.

Nasiba: Og'riq qoldiruvchi ukol qilib qo'ydim. Birpasda uxlab qoladi. Uyg'onganida og'riq bo'lmaydi, mabodo bezovta qilsa, chaqir-tiring, xo'pmi?

Farog'at yanga: Xo'p, rahmat, kelin.

Nasiba eshik tomonga juradi. Farog'at bilan Qodir domla uning ortidan ergashishadi.

Qodir domla: Kelin, ishqilib, Ergashjon-niing kasali jiddiy emasmi?

Nasiba: Endi, domla, o'zingizdan qolar gap yo'q. Qishloq shifoxonasining sharoitini mendan yaxshiroq tushunasiz. O'g'lingizni shaharga olib borib, mutaxassis ko'rigidan o'tkazish kerak. Men bilganim, og'riq qoldiruvchi vositalar hech qachon bemorni davolay olmaydi. Vaqtinchalik tinchlantiradi, xolos.

Farog'at yanga: Bugunog olib boramiz, kelin. O'tirsangiz, choy damlardim.

Nasiba: Mayli, opa, yana kelaman. Faqat tibbiy ko'rikni kechiktirmanglar.

Nasiba chiqib ketadi. **Qodir domla** bilan **Farog'at** yanga qolishadi. **Qodir domla** xotinini tinchlantirishga urinadi.

Qodir domla: Ko'p kuyunaverma, xotin. Hali hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Balki, shamol-lagandir. Hoziroq birga borib, tibbiy ko'rikdan o'tkazamiz.

Farog'at yanga: Dadasi, bu oddiy shamol-lashga o'xshamayapti. Nimagadir ko'nglim g'ash. Mayli, siz ishingizdan qolmang. Ergashjonni ko'rikka o'zim olib boraman. Siz Abdullajonning masalasini hal qilavering.

Qodir domla: Ishqilib, Ergashjonning kasali yengil bo'lib, Abdullajonning Londonga borishi masalasida ham yaxshi xabar eshitaylik-da.

Farog'at yanga: Ilovo, aytganingiz kel-sin.

Sahna qorong'ulashadi.

IKKINCHI KO'RINISH

Tuman xalq ta'limi boshqarmasi binosi. Boshliqning xonasi eshigiga qabul vaqti yozilgan. Boshliqning xonasi. Ish stoli. Stol ustida turli kitoblardan hujjatlar. **Malika** nimanidir o'qib o'tiribdi. Eshik taqillab, **Qodir domla** kirib keladi.

Qodir domla: Mumkinmi, **Malika** Shavkatovna?

Malika Shavkatovna: (O'rnidan turib, kutib oladi.) Keling, domla, assalomu alaykum, keling.

Qodir domla: Vaalaykum assalom, bugun bir sobiq o'quvchilarimni, tumanning yangi katalarini yo'qlay, dedim-da.

Malika Shavkatovna: Qadamlaringizga hasanot, domla. Xush kelibsiz. Tashrifingizdan boshimiz osmonga yetdi. Biz boshqalar uchun katta bo'lsak ham, sizning qoshingizda hamisha o'quvchimiz, ustoz.

Qodir domla: Baribir adabiyotchiligi-nga borasan-da, **Malika**. Sening gaplaringni eshit-sam, xuddi kitob o'qiyotganday bo'laman. Qani, ilohi omin, tinchlik-xotirjamlik bo'lsin, Oллоhu akbar. Qandaysan, bolam, ishlar bilan charchamayapsanmi?

Malika Shavkatovna: Ming shukur, domla, ming shukur. Siz xafa bo'lmang-ku, lekin maktabda adabiyot muallimamiz Ra'no opa

bizni adabiyotga oshiq qilib qo'ygan. Shuning uchun ham opaning yo'llaridan yurib, adabiyot muallimi bo'ldik. Lekin taqdir ekan, bugun bu yerdamiz. O'zingiz bardammisiz, domla? Sa-a-ah bezovtarok ko'rinasiz?

Qodir domla: Yaxshiman, qizim, yaxshi man. Bezovtaligim ham rost. Shu desang, avval manovi maqov yorliqlarini bir ko'rsang. (Qo'llaridagi papkani ochib, ichidan bir dasta faxriy yorliqlarni olib uzatadi.) Bu bola mening o'quvchim, juda iqtidorli yigit, yaqinda internet orqali oliy matematika misollarini yechib, yoshlar o'rtasida Londonda bo'lib o'tadigan Butunjahon matematika olimpiadasiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Undan umidim katta.

Malika Shavkatovna: Xabarim bor, domla, xabarim bor. Axir, tumanimizdan har kuni bir o'quvchi Londonga bormaydi-ku. Kecha hokimlik soatida ham aytdim, hokim buva ham xursand bo'ldilar. Qandini ursin shunday yigitlar. Aytimg, domla, bizdan nima xizmat?

Qodir domla: Xabaring bor, Abdullajon otasiz ulg'ayayapti, oilasi kam ta'minlanganlar ro'yxatida turadi. Uning oliaviy ahvoli Londonga borish-kelish xarajatlari ko'tara olmaydi. Mabalag' borasida yordam so'rab kelgan joyim edi.

Malika Shavkatovna: Endi, domla, bilasiz? Biz Abdullajonga vakolatimizdan kelib chiqib barcha imkoniyatlarni yaratib beramiz. Ya'ni, bepul tayyorlov kurslari, o'zimizda bo'ladi-

gani olimpiadalarda qatnashish imkoni va shu ko'lablarni. Ammo biz byudjetga qarammiz, buni o'zingiz ham tushunasiz. O'zingiz bilasiz, London olimpiadasiga borish katta mablag' talab qiladi. Iltijagan taqdirimizda ham mablag' masalasida yordam bera olmaymiz. Lekin siz siqlimgan, albatta, bu masalani keyingi hokim soatida o'rtaqashtirayman. Maslahatlashib, bir yo'llini topamiz.

Qodir domla: (Hafsalasi pir bo'lib) Shunday degin, vakolating bo'lmasa, iloj qancha. (Faxriy yorliqlarni sumkasiga solib, o'rnidan turadi.) Mayli, salomat bo'l.

Malika Shavkatovna: Domla, shoshmang, hali iloji yo'q, demadim-ku. O'ylab ko'raylik, deyapman.

Qodir domla: Senda imkoniyat yo'qligi, kuyingning indallosidan ma'lum. Mayli, qo'yaver, men ketdim.

Malika Shavkatovna: Domla, keyingi safar o'quvchingizni ham birga olib keling. Uni taqdirlaymiz, boshqa maktablar o'quvchilariga ibrat qilib ko'rsatamiz.

Domla: Taqdirlaysan? Nima bilan? Londoniga bora olmagan bilanmi?

Malika Shavkatovna: Domla, siz meni tushunmayapsiz, bekorga ranjiyapsiz, men yordam bermaymiz demadim-ku, axir?

Qodir domla qo'l siltagancha xonadan chiqib ketadi. Malika og'ir xo'rsinib qo'yadi. Sahnaning bir tomoni qorong'ulashadi. Eshikning taqillagan

ovozi eshitilishi bilan sahnaning ikkinchi tomonini yoritiladi. Sahnada tepasida "Hokimiyat" degan yozuv osilgan. Sahnada ish stoli, stol ustida turli hujjatlar. Besh-oltita telefon. Hokim telefonda kim bilandir bag'irib gaplashayapti.

H o k i m: Menga bahona qilma, qachongacha senlarni deb gap eshitaman. Ko'rsatayotgan sabablaring meni qiziqitmaydi, tushundingmi? Rejadagi ishlarni bajar-da, keyin kelib, arizangni yoz. Agar yana bir marta seni deb yuqoridan gap eshitsam, tamom. Tushundingmi? Tushundingmi, deb so'rayapman sendan, galvars?

Kotiba qiz xonaga kirib keladi va qaytib chiqib ketishning ilojini topmay, hokim gaplashib bo'lishini kutib turadi. Hokim jahl bilan go'shakni qo'yib, kotibaga o'qrayib qaraydi. Shoshib qolgan kotiba qiz tutilib-tutilib gapiradi.

Kotiba: Mumkinmi, Orif Tursunovich. Sizni bir odam so'rab keldi. O'qituvchingiz ekan. Qodir domla desang, o'zlari taniydi, deb aytdi. Juda muhim gaplari bor ekan.

H o k i m: Meni shu yerda dedingmi?

Kotiba: Ha. (Yerga qaraydi.)

H o k i m: Tezroq chaqir. Hozir viloyatga ketishim kerak.

Kotiba: Xo'p bo'ladi.

Qodir domla kirib keladi.

Qodir domla: Hormang endi, hokim buva. **H o k i m:** Assalomu alaykum, domla, qani, keling, keling. Sog'-omommisiz? Yangam bardam-baquvvat yuribdimi?

Qodir domla: Rahmat, rahmat, yaxshiman. Sog'ligim joyida. Ko'z tegmasin, yangang ham otday.

H o k i m: Yaxshi-yaxshi. Domla, uzr, bizga nima xizmat? Maqsadga o'taylik. O'zingiz bilasiz, viloyat rahbari o'tkazadigan majlisga kech qolib bo'lmaydi.

Qodir domla: Mana buni ko'r. (Sumkasi-dan faxriy yorliqlarni chiqaradi.) Bu o'zimizning qishloqdosh, rahmatlik Habibullaning o'g'lining yutuqlari. Esladingmi, u sizlardan ikki sinf past o'qirdi. U ham iqtidorli edi. Lekin hayotda omadi yurishmadi. Bola-chaqaga o'ralshib, o'qiy olmad. Keyin xorijga ishga ketib, o'sha yoqlardan o'lib keldi. Abdulla – uning to'ng'ich o'g'li. Noyob qobiliyati bola. Londonda bo'lib o'tadigan Butunjahon matematika olimpiadasiga yo'llanma oldi.

H o k i m: Eshitdim, domla, eshitdim. Juda xursand bo'ldim. Xo'sh, bizdan nima xizmat?

Qodir domla: Shu bola uchun bir iltimos qilib keldim.

H o k i m: Domla, tezroq maqsadga o'ta qoling. Kechikayotganinni aytdim-ku sizga.

Qodir domla: Olimpiadaga ketishga uchkun qoldi. Biz mablag' topa olmadik. Sendan iltimos, shu bolaning olimpiadaga borib-kelish yo'llirasini to'g'ri lab bersang.

H o k i m: Bu masala bo'yicha Xalq ta'limiga boring, axir, iqtidorli yoshlarning xalqaro olim-

piadalarda qatnashishi uchun davlat tomonidan mablag' ajratiladi.

Qodirdomla: Bordim, Orifjon, Xalq ta'limiga ham bordim. Lekin iloji yo'q, deysizdi.

Hokim: Nega?

Qodirdomla: Ayb o'zimizdan ham o'tdi. Abdullajon olimpiadaga yo'llanmani o'z shaxsiy tashabbusi bilan internet orqali tanlovda qatnashib qo'lga kiritgandi. Bunday holatda xarajatlar qatnashuvchining hisobidan bo'lar ekan. Shuning uchun sendan yordam so'rab keldim.

Hokim: Ha-a, masalaning bu tomoni bordeng. (*Biroz o'ylanib turib*) Lekin Londonga borib kelish, u yozda mehmonxonada turish, bunga qancha pul ketishini bilasizmi, domla? Men buncha pulni qayerdan topaman? Mayli, unda rahbariyat bilan bog'lanib ko'ray, lekin, domla, bunga to'rt-besh kun vaqt ketadi.

Qodirdomla: To'rt-besh kun deganing nimasi? Bizga uzog'i bilan ertaga, bo'lmasa, indinga pul kerak. Chipta band qilib qo'yish, yana hujjatlar deganday...

Hokim: Unda, domla, uzr. Bu ish qo'llimdan kelmaydi.

Qodirdomla: (*Birdan qizishib ketib, ovozini ko'tarib gapiradi.*) Nima uzr, nima uzr, a? Cho'ntagingdan ber deyapmanmi senga, qonuniy pul ajrat, davlat bunga qarshi bo'lmaydi, deyapman.

Hokim: Kam ta'minlanganligi uchun oila-ning pul ajratganmiz. Lekin unga Londonga borib yallo qilib kelishiga pul ajrata olmayman.

Qodirdomla: (*Jahli chiqib*) Yallo qilmaydi, olimpiadada qatnashadi, deyapman senga.

Hokim: Xo'p-xo'p, nega qizishaversiz, domla. Menyam to'g'ri tushuning-da. O'quvchingiz ketishiga uch kun qolganda kelib, pul topib ber deyapsiz. Kerak ekan, avvalroq kelmaysizmi? Maslahatlashib, bir yo'lini topmaymizmi? Hozir sizga shuncha pulni qayerdan topib beraman? Nima, yoki siz ham ayrimlarga o'xshab, hokimning seyfida dasta-dasta pullar (*Jahl bilan seyfning ustiga taq-taq uradi.*) yotadi, deb o'ylaysizmi?

Qodirdomla: Shu o'zingmisan, Orifji?

Hokim: Xafa bo'lmang, domla. Men sizga bor gapni aytdim-qo'ydim. Endi uzr, yig'ilishga kechikayapman.

Qodirdomla: Faxriy yorliqlarni ber bu yoqqa. (*Faxriy yorliqlarni sumkasiga sola turib gapiradi.*) Unutma, Xudo senga har ne'mat ber-sa, sinov. To'g'risi, sening halolligingni qadrlayman, gunohga qo'l urmaganingni, nohaq birovning burnini qonatmaganingni ham yaxshi bilaman. Ammo, Orifjon, savob qilmaslik ham gunoh bo'ladi, bolam, gunoh bo'ladi. Nega unday qaraysan? Savob ishlar ham qilayapman, demogchimisani? Dema, chunki bu savoblar senga tegishli emas, sen buyruqlarni bajarayapsan, xolos! Lekin mana shu kursingda o'tirib qancha

savob ishlar qilishning mumkinligini bilasanmi? Bilasan, senda juda katta imkon bor. Ammo ana shu imkondan foydalanmaysan. Chunki qo'rqasan, xato qilib qo'yishdan cho'chiyasan. Shuning uchun ham urinib ko'rmayasan. Yuqorida qancha katta ishlar bo'layapti. Davlat rahbari kecha-yu kunduz demay kuyib-pishib ishlayapti. Iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlanglar, rag'batlantiringlar, deyapti. Lekin u kishining da'vatlari hali bizgacha yetib kelmagan ko'rinadi. Endi bor, tag'in majlisiga kechikib yurma.

Qodir domla xonadan chiqib ketadi. Hokim bir muddat joyida o'tirib qoladi. Mahzun musiqqa ohangida sahna qorong'ulashadi.

UCHINCHI KO'RINISH

Choyxona. Xontaxta atrofiga ko'rpachalar to'shalgan. Xontaxta usti to'la noz-ne'mat, ichimliklar. Xontaxta atrofiga to'rt nafar tadbirkor: Sobir, Xayrulla, Sahobiddin va Zafar kulishib, suhbatlashib o'tirishibdi.

Sobir: Oshning guruchini solishdimi, Zafar?

Zafar: Ha, hozirgina solishdi. Hademay tayyor bo'lib qoladi.

Sobir: Ha, yaxshi. Aytgancha, yigitlar, bugun ertalab Qodir domla telefon qilib, uchrashib olaylik, deb qolsa bo'ladimi?

Xayrulla: Bo'ladi-bo'ladi. Xo'sh, uchrashdingimi? Domlani nima dardi bor ekan senda?

Sobir: Yo'q, tushdan keyin gayerda bo'lasan deb so'rovdilar, choyxonani aytdim. Hali zamon shu yerga kelib qolsalar kerak.

Xayrulla: Zo'r odam-da shu Qodir domla, maktab paytimizda haddan ziyod tergayverardilar-u, ammo o'sha paytda ham qattiqqo'lliklari uchun hurmat qilar edim. Haliyam matematikadan u kishi o'rgatgan misollarni maktabda o'qiydigan o'g'illarimdan tez yechib tashlayman. Ilimdum, ayb bugungi domlalardami yoki o'zi bolalarimizning miyasi puchmi?

Sahobiddin: (Zarda bilan gapiradi.) Xayrulla, falsafa so'qishni yig'ishtir. Choyxonaga miyani achitishga emas, unga dam berishga kelganimiz. Sobir, sen ham shu domlangga, ertaga uchrashaylik, deb qo'ya qolsang bo'lmasmidi?

Sobir: Nega unday deysan?

Sahobiddin: Ey, yelkangdagi boshmi yoki bosh deb bo'sh qovoqni ko'tarib yuribsanimi? Hozir sen bilan mening oldimga birov hol-ahvol ko'rab kelmaydi. Bir dunyo muammo ko'tarib, yordam so'rab keladi, asabni buzib.

Zafar: Sahobiddin, xuddi bundan avval birovning muammosini hal qilib qo'yg'an odamdek gapirasan-a. (Yigitlar qah-qah urib kulib yuborishadi.)

Sahobiddin: Sen nimani bilarding, g'alcha. Agar bugun birovning muammosini hal qilib bersang, ertaga butun urug'-aymog'ining dardlarini ko'tarib keladi bu dardisarlilar.

Sobir: Sahobiddin, seni ishdan bo'shatib yuborishgan payti shu fikrlar mening xayolimga kelganda, haliyam burningni oqizib, ish izlab yurarmiding?

Sahobiddin: Nima, bir paytlar ishga olinganini endi minnat qilayapsanmi? Ayt, qancha beray? Sendan qarzim bo'lsa, bugun orani ochiq qilib qo'ya qolaylik.

Sobir: Ko'rmaganning ko'rgani qursin, jo'ra. (Telefoni jiringlab qolib, o'rnidan turib chiqib ketadi.)

Xayrulla: Sahobiddinboy, sal pastroq tushing. Nima, bugun ertalabdan birov arpani gizni xom o'rdimi, hali unga, hali bunga qarab tashlanasan?!

Sahobiddin: Nima, men senga imidimki, to'g'ri kelgan odamga tashlansam?

Zafar: Hay-hay, shaytonga hay beringlar, jo'ralar. Kim aytadi bizni ko'p yillik qadrdonlar, deb. Sahobiddin, Xayrulla to'g'ri aytayapti, sa-a-al o'pkangni bosib ol, jo'ra.

Sahobiddin: Bo'pti-bo'pti. O'sha domlang osh suzilguncha kelsa kelsin, bo'lmasa, ana, So-birning o'zi chiqib, tashqarida gaplashib kelsin. Domla hozir bu yerga kelsa, bir narsa so'ramaganda ham, ichma-chekma, deb nasihat qilib, shusiz ham rasvo bo'lib turgan kayfiyatimizni bundan battar qiladi. Bo'ldi, undan ko'ra anovidan quy.

Zafar: Agar Qodir domla kelib, hamma oshni yeb qo'ysa, senga o'zim qaytatdan osh dani-lab beraman. Faqat birpas jim o'tir, jo'ra.

Sahobiddin: Nega hammalaring meni bo'ra olmaysizlar-a? Men domla oshimizni yeb qo'yadi, demadim. Nasihat beraverib, kayfiyatimizni buzadi, o'ynab-kulib o'tiraylik dedim, jo'ralar.

Zafar: Sahob, jo'ra, bo'ldi qil endi, ming'ir-layverib miyaning qatig'ini chiqarib yubording.

Shu payt tashqaridan Sobir bilan Qodir domla o'zaro suhbatlashib kirib kelishadi.

Sobir: Domla, tashqarida gaplashamiz deganingiz nimasi? Kiring, biz bilan birpas o'tirib, bu yerdagilarning hammasi o'zingizning o'quvchilaringiz.

Hamma domla bilan o'rnidan turib ko'rishadi. Faqat Sahobiddin o'tirgan joyida qo'l uzatadi. Sobir va Xayrulla unga yovqarash qiladi. Zafar boshini sarak-sarak qilib, undan noroziligini bildiradi. Qodir domla hech narsani sezmagan-day, duuga qo'l ochadi. Duo-yu fотиha qilib, birma-bir so'rashishadi.

Qodir domla: Hammalaringiz shu yerdagilaringiz yaxshi bo'ldi. Bir iltimos bilan katta boshimni kichik qilib keldim.

Qodir domla so'zini tugatmay turib Sahobiddin kinoya bilan luqma tashlaydi.

Sahobiddin: Bizni sog'inib kelibsiz deb o'ylabmiz, domla, uzr.

Yigitlar Sahobiddinga yomon qarashadi. Sahobiddin biroz noqulay ahvonga tushib qoladi. O'rtaga yoqimsiz jimlik tushadi.

S o b i r: Gapiravering, domla, bunga e'tibor qilmang. Azaldan hazili sovuqroq shu o'quvingizning.

Qodir domla: Ha, mayli. (Papkasini ochib, bir dasta faxriy yorliqlarni yigitlarga uzatadi.) Bu o'zimning Abdullaning yutuqlari. U Londonda bo'lib o'tadigan Butunjahon matematika olimpiadasiga yo'llanma oldi.

Yigitlar faxriy yorliqlarni qo'lma-qo'l qilib ko'rishadi. Faqat Sahobiddin ularga qaramaydi. Zafar oldiga qo'ygan bir nechta faxriy yorliqni namoyishkorona kaftining orqasi bilan o'zidan uzoqroqqa surib qo'yadi.

Zafar: Domla, bizdan nima yordam kerak.

Qodir domla: Abdullaning otasi yo'qligini bilasizlar. Shunga Londonga borb-kelish xarajatiga yordam qilib yuborasizlarmi, degan o'yda maslahatga keluvdim. Har holda, o'zimning qishloqdan chiqqan yigit.

Xayrulla: Qancha ketarkan, domla, aytishdimi?

Qodir domla: Ha, so'rab-surishtirdim, uch ming dollarlar atrofida bo'larкан.

Oraga biroz sovuq jimlik cho'madi. Hamma yerga qarab o'tiribdi. Domla ularga bir-bir qarab chiqadi. Yigitlar undan ko'zini olib qochadi. Sahobiddin avval ulfatlariga, keyin domlaga bir qurg'olibona qarab olib, so'z boshlaydi.

Sahobiddin: Hozirgina nima devdim? A, nima devdim? (Yigitlar jim.) Domla, uch ming dollar og'zingizni bir chetidan chiqib ketdi-ya? O'zi uch ming dollar gancha pul bo'lishini bilasizmi? Sira shuncha pulni qo'lingizda ushlab ko'rganmisiz?

Qodir domla: (Endi u ham kinoya bilan, salmoqlab gapiradi.) Yo'q. Buncha katta pulni ushlab ko'rish u yoqda tursin, tushimdayam ko'rganim yo'q. Sahobiddinboy! Endi siz himmat qilib, savob uchun deb bersangiz, ushlab ko'rtarmiz.

O'rtaga yana noqulay jimlik tushadi. Ulfatlar Sahobiddinga yovqarash qilishadi. Endi Sahobiddin o'zini oqlash uchun biroz boshqacharoq ohangda gapiradi.

Sahobiddin: Gap yo'q, pulim bo'lsa, savobdan qolarimdim, domla. Xabaringiz bor, tuman markazida yana bitta supermarket qurayapman. Hozir qurulish mahsulotlarining narxi hammaqam ma'lum. Qolaversa, ana, Abdullaning boyvachcha amakisi bor, o'shandan so'rasangiz bo'lmaydimi?

Qodir domla Sahobiddinning gapini javobsiz qoldiradi.

Zafar: Domla, buncha pul bizga ham biroz og'irlik qiladi. Shu, Abdullaion boshqa safar bor-sa bo'lmasmikan?

Qodir domla: Bo'lmaydi-da, bolam, bo'lmaydi. Agar u shu olimpiadada g'olib bo'lsa,

dunyoning eng yetakchi oliy o'quv yurtlarida o'qish imtiyozini qo'lga kiritadi. Kelajakda juda katta iqtisodchi olim bo'lib yetisha, siz-u menga, yurtga foydasi tegadi. Unda xudo bergan iste'dod bor. Ana shu iste'dodi uvol bo'lmasin deb yuribman, yigitlar. Uzi, sizlarni ham bezovta qilib qo'ydim. Mayli, men endi boray. Sobirjon, anavi faxriy yorliqlarni uzatib yubor.

Qodir domla Sobirning qo'lidan faxriy yorliqlarni olib, o'rnidan turayotganda Sobir yana uni to'xtatmoqchi bo'ladi.

Sobir: Domla, hozir osh suzilai. Bir chuqum bo'lsa ham nasibangizni yeb keting.

Qodir domla: Rahmat, Sobirjon, har doim yegan oshimiz.

Sobir: Domla, odam noqulay ahvolga tushib qoldi.

Qodir domla: Qiziq bola ekansan-ku, men iltimosimni aytdim, sizlar ahvollaringizni, buning hech noqulay joyi yo'q. Men sizlardan xafa emasman. Subhatlaringizni bo'lib qo'rgan bo'lsam, meni kechiringlar.

Qodir domla shu gaplarni aytib, sahnadan chiqib keta boshlaydi. Shu yerda uning yelkasi cho'kib qolgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Yigitlar ham yerga qaragancha o'tirishibdi.

Sahobiddin: Ana, boya nima degandim sizlarga.

Sobir: O'chir ovozingni. Buncha qarg'aga o'xshab qag'illamasang...

Zafar: Menga qara, Sahob, domla o'ziga emas, birov uchun so'radi.

Sahobiddin: Ey, menga aql o'rgatmalaring, o'zimam ko'rib turibman. Hozir bekorga savob ish qiladigan odam qoptimi? O'ziniyam manfaati bor bu cholning.

Sobir: Jo'ra, sen uch-to'rt so'm pul topib, birovni mensimay qo'yibsan. Pul odamni o'zgartiradi desa, ishonmasdim. Mana, endi ko'rib turibman.

Sahobiddin: O'zingni faylasuf qilib ko'rsatishing shart emas. O'zi hammasiga sen aybdorsan, o'tirishniyam rasvo qilding. (O'rnidan turib ketadi.)

Xayrulla: Yigitlar, bekorga gap talashmasdan o'tiringlar. Balki, hammamiz o'sha pulni yig'ib berarniz.

Sobir: Menam shu haqda o'ylab turuvdim. Ishim o'xshab qolsa, men ming atayman.

Sahobiddin: Ishing o'xshamay qolsa-chi?

Sobir: Sen o'zingga javob ber.

Sahobiddin: Undan ko'ra, berolmayman, deb qo'ya qol.

Zafar: Uni tinch qo'y. O'zing-chi? O'zing qancha qo'shasan?

Sahobiddin: Rostini aytaman, men o'sha cholg'a bir so'm ham bermayman.

Sobir o'rnidan turib, Sahobiddinning yoniga boradi.

Sobir: Sen nima demogchisan, o'zi?

Sahobiddin: Bir paytlar rahmati onamni operatsiya qildirish uchun pul so'rab borganimda qayerda edi shu aqlaring. Birortangning menga insofdan dars berishga haqlaring yo'q.

Sahobiddin jahl qilib sahnadan chiqib ketadi. Orqasidan Xayrulla ham chiqib ketadi. Sobir bir-pas o'ylanib turib, u ham chiqib ketadi.

Zafar: Senlar bilan gaplashib ham bo'lmay qolibdi.

Choyxonachi: Aka, osh tayyor bo'ldi. Olib kelaymi, nima qilay?

Zafar: (kayfiyati tushib, jiddiy ohangda) Uka, oshni o'zing ye.

Zafar qo'lini bir siltab sahnadan chiqib ketadi. Choyxonachi tomoshabiniga yuzlanib qotib qoladi. Sahna qorong'ulashadi.

TO'RTINCHI KO'RINISH

Hashamatli uyning ichki ko'rinishi. Sahnada o'rtasida bitta stol, ikkita stol turibdi. Stol usti noz-ne'matlarga to'la. Abdulaning amakisi Muzaffar telefonda gaplashgancha sahnaga chiqib keladi.

Muzaffar: Ha, tushunding-a, eng zo'r joylarga olib bor. Eng qimmat restoranlarda ovqatlanir. Kelajagimiz ularga bog'liq. Og'zidan chiqqanini muhayyo qil. Hisob raqamingga besh ming o'tkazib qo'ydim... Ko'kidan.

U telefonda gaplashayotgan paytda eshik taqillaydi. Muzaffar telefonda gaplashib borib, eshikni ochadi. Eshikdan Qodir domla kirib keladi. Muzaffar unga qo'li bilan "stulga o'ting" degandek ishora qiladi va sahnaning boshqa chetiga borib suhbatini davom ettiradi.

Muzaffar: Ular qachongacha O'zbekistonda bo'lishini bilmayman. Sening ham bu yog'i bilan ishing bo'lmasin. Asosysi, ko'nglini ol. Ularni men mehmon qilayotganimni alohida uqtir. Bir-ikki kun ichida o'zim ham yetib boraman. Agar pul yetmаса, tortinma. Mayli, aloqaga chiqib tur.

Telefonini o'chirib, cho'ntagiga soladi va Qodir domla bilan qo'shqo'llab ko'rishadi.

Muzaffar: Assalomu alaykum, domla, keling, keling. Biz tomonlarga qaysi shamollar uchirdi?

Qodir domla: Vaalaykum assalom, yaxshimisan, Muzaffar?

Muzaffar: Ming shukur, mana, birovdan kam, birovdan ziyod deganlariday, yashab yuribmiz, domla. (U domlaga gapira turib boshi bilan hashamatli imoratiga ishora qilib qo'yadi.) Qishloqdagilar qalay? Yangam yaxshimi? Ergashjon ham katta yigit bo'lib qolgandir?

Qodir domla: Yaxshi yurishibdi, hamma-lari senga salom deb yuborishdi.

Muzaffar: Salomat bo'lishsin, qani-qani, o'tiring.

Ikmalasi ham o'tirishadi.

Qodir domla: Qani, iloh o'min, tinchlik-xotirjamlikni bersin, shu xonadonda ham chaqaloq ovozlari eshitisin, katta-katta to'ylar bo'lsin, Oллоhu akbar.

Muzaffar: Aytganingiz kelsin. Ellikta-ellikta aytiraymi, bir otamlashamiz, domla?

Qodir domla: Biron marta ichganimni eshitgan yo ko'rgan joying bormi?

Muzaffar: Bu bir hazil-da, domla, bizdan nima xizmat?

Qodir domla: Mana bularni ko'r. (*Papkasidan faxriy yoriqlarni olib uzatadi.*) Jiyaningning yutuqlari.

Muzaffar: (*Faxriy yoriqlarni nopisand ko'ra turib, gapiradi.*) Bu bola rahmatlik akamga ham, menga ham tortmadi. Umri kitob titib o'tib ketadi, shekilli.

Qodir domla: Unday demang, Muzaffarboy, bu jiyaningiz o'ta iste'dodli. Sizga bir xush-xabar olib keldim.

Muzaffar: Londonga borishi haqida bo'lsa, xabarim bor. Kecha yangam kelib ketgandi.

Qodir domla: Shunaqami? Unda hammasi aniq ekan. Shu jiyaningizni bi-i-i-ir qo'llab yuborsangiz, deb kelgandim.

Muzaffar: Domla, yangamdan hammasini eshiddim. Bu yerda gap ikki yuz, uch yuz ming so'm haqida ketmayapti. Uch ming dollar haqida gap borayapti-ya, uch ming dollar!

Qodir domla: Bilaman, Muzaffarboy, bilaman. Lekin shu bolani qo'llasangiz, ham savob bo'ladi, ham akangizning ruhi shod bo'ladi.

Muzaffar: Bultur qishloqdagi masjidni ta'mirlatib beruvdim, hozircha shuning savobi yetib turar, domla. Tadbirkor degani yo'qdan pul qiladigan odam, borini yo'q qiladigan emas.

Qodir domla: Axir, Abdullajon o'ta iqtidorli...

Muzaffar: Iqtidorli bo'lsa nima qipti? Shunaga iqtidorli ekan, Londonda pishirib qo'yibdimi unga? Ana, o'qiyman desa, o'zimizda ham o'qish tiqilib yotibdi. O'zimizning diplom ham teshib chiqmaydi.

Qodir domla: Bolaning ko'ngli sinib qo'llishi mumkin. Axir, u akangning o'g'li, jigaring...

Muzaffar: Domla, men allaqachon maktabni tugatib, shahodatnomamni olganman. Menga dars bermang. O'zingiz bilasiz, menda jigardan ko'pi yo'q. Buning ustiga xotin ham serurug'. Agar ularning hammasiga ko'ngil-chanlik qilaversam, uyimni qaydan topaman. Hayotga jiddiyroq qarang. Undan ko'ra, Abdullaga o'zingizga o'xshab ketmon chopishni, paxsa urishni, suvoq qilishni o'rgating, harna onasining qanotiga kiradi. O'tgan gal borganda ko'rdim, otam qurgan uy to'kilib, ado bo'libdi. Hunar o'rgansa, uyning u yoq-bu yog'ini yamab-yasqab, odam yashasa bo'ladigan qilar-midi, deyman.

Qodir domla: (Jahli chiqib, baland ovoza gapiradi.) U ketmon chopmaydi. Senga o'xshab olib sotarlik qilib, bironing o'chog'ida isinmaydi. Men Londonga boradi dedimmi, boradi.

Ular subhatlashayotganda sahaga hassa tayangancha Muzaffarning onasi Saida ona chiqib keladi.

Saida ona: Asabiylashmang, Qodir muallim, sog'lingizga zarari bor. Siz bilan mening yoshimda asabiylashish koni zarar: (Qodir muallim o'g'irilib Saida onaga qaraydi. Saida ona bir qo'lida hassaga tayanib, ikkinchi qo'lini ko'ksiga qo'ygancha domlaga salom beradi.) Asalomu alaykum, muallim, xush kelibsiz.

Qodir domla: Vaalaykum assalom, Saida opa, subbatimizni eshitgan bo'lsangiz, o'g'lingizga tushuntiring, zora, gapingizni olsa.

Saida ona: Eshitdim, muallim, eshitdim. Lekin men ham Muzaffar tomondaman. Buni kecha Abdullaning onasiga ham aytganman. Kelin jonivor yana uyalmasdan sizni elchi qilib yubordimi?

Qodir domla: Bu nima deganingiz, Saida opa? Birtinchidan, meni kelin yuborgani yo'q. Uni bu yerga kelganini hozirgina Muzaffardan eshitdim. Ikkinchidan, Abdullaning Londonga borishiga siz nega qarshisiz?

Saida ona: Muallim, hammasidan xabaringiz bor. Nima qilasiz eski yaralarimni tirnab? Agar o'sha oyimcha rahmatli Habibulloyimni

boshini aylantirib, tegib olmagandaydi, bolam hozir tirik bo'lardi.

Qodir domla: Gap bu yozda deng, axir oradan qancha yillar o'tib ketdi, Saida opa. Men bu yerda Muzaffardan ranjib o'tiribman, nega akasining oilasiga qarashmaydi, deb.

Saida ona: Bilasiz, boshidayoq ularning nikohiga qarshi edim.

Muzaffar: Qo'ysangiz-chi, ona...

Saida ona: Nima ona, a, nima ona? O'sha kelinni ko'rsam, o'g'limning qotlini ko'rgandek bo'laveraman, yaram yangilanaveradi. Aaval onang bilan turmayman dedi, keyin boshqa hovli olamiz dedi, odamlar to'rt kun xorijda ishlab, dasta-dasta pul topib kelyapti dedi. Xullas, u dedi, bu dedi, bolajonimni holi-joniga qo'ymay, xorijga jo'natdi. Ana, ikki o'rada men to'ng'ichimdan, o'zi eridan, bolalari otasidan ajrab, qon-qaqshab o'tiribmiz...

Saida ona so'zini tugata olmay, ro'molini yuziga tutgancha yig'lab yuboradi.

Qodir domla: Opa, kelin ham Habibulani o'ladi, deb o'ylamagandir. Siz ham uni tushunishga harakat qilib ko'ring.

Saida ona: Yo'q. Men uni hech qachon tushunmayman. Tushunishga harakat ham qilmayman. U men uchun ikki dunyo bir kelganda ham o'g'limning qotili!

Qodir domla: Lekin uning farzandi sizning nabirangiz, o'g'lingizdan yodgor emas-

mi? (*Keyin Muzaffarga qarab, qo'lini bigiz qiladi.*) Sening tus jiyaning emasmi, boyvachcha? Billb qo'ying, men sizlardan sadaga so'rayotganim yo'q. Habibullaning oldidagi burchlarini eslatayapman, xolos.

Saida onani birdan qattiq yo'tal tutib qoladi, o'rnidan turib, sahnadan chiqq boshlaydi.

Qodir domla: Qolaversa, xudo kuch-quvat berib tursa, o'zimniyam qo'limdan keladi. Abdullajonni, albatta, jo'nataman olimpiadaga.

Muzaffar: Qizishmang, domla, qizishmang. Hozir uch ming dollarni hech kim bermaydi sizga. Demak, jo'nata olmaysiz. Shunday ekan, bolani ham tinch qo'ying. O'zingiz ham ovora bo'lmang.

Qodir domla: Jo'nataman, dedimmi, bir martaga jo'nataman. Kerak bo'lsa, mashinamni sotaman.

Muzaffar: Mashinangizni, qachon mashinaga olgan edingiz? Qanchaga sotasiz?

Qodir domla: O'tgan yili, Ergashjon o'qishni bitirsa minar, degan niyatda olib qo'ygan edim.

Muzaffar: Yangimi?

Qodir domla: Nima, sen o'g'lingga eski narsa olib qo'yasanmi?

Muzaffar: Markasi qanaga, domla?

Qodir domla: Qishloqqa "Matiz"dan qulay yo'q.

Muzaffar: Shuni Abdullaning Londonga borishi uchun sotasizmi?

Qodir domla: Sotaman!

Muzaffar: Qanchaga?

Qodir domla: Bahosini bozor chiqaradi.

Muzaffar: Sotadigan bo'lsangiz, menga soting. Beraman o'sha uch ming dollarni.

Qodir domla: (*Birdan jahli chiqib gapiradi.*) Shunchalar ham pastkashmisan?.. Zararcha insof qolmabdi-sen bolada. O'lay agar, birov shu gapni aytga ishonmasdin. Abdullaga men kimmaman-u, sen kimсан. Rahmati akang bo'lganda haliyam yurgan bo'larding takasaltang jo'ralaring bilan.

Muzaffar: Haqorat qilmang, domla. Men sizni, jiyanimni o'ylab, savob uchun olaman, deyapman o'sha mashinani. Bo'lmasa "Matiz"ni boshimga uramanmi? Ana, darvozaxonada ko'rmadingizmi, moyi arilmagan ikkita "Kaptiva" turibdi. Men aytgan narx yoqmasa, ana, yakshanba kuni bozorga olib chiqing. Bugun seshanbani, demak siz mashinangizni sotaman deganingizcha olimpiadaga ketadiganlar ketib bo'ladi.

Qodir domla: (*Birpas o'ylanib turib, so'zlaydi.*) Bo'pti, roziman, ber pulni.

Muzaffar: Gap yo'q. Avval notariusga boramiz, siz mashina va uning hujjatlarini olib keling, pulni o'sha yerda olasiz.

Qodir domla: Yaxshi. Notarius idorasida uchrashamiz.

Qodir domla stol ustida sochilib yotgan faxriy yorliqlarni yig'ishtirib, papkasiga soladi va o'rnidan turib chiqib ketadi. Sahnaga qorong'ulashadi.

BESHINCHI KO'RINISH

Qodir domlaniq uyi. Qodir domla so'rida o'tiribdi. Oldida oppoq tuguncha. Abdulla kirib keladi.

Qodir domla: Qani, tayyormisan, yuklaringni mana bu yerga qo'y. Yangang bilan akang shifoxonadan kelsin, Ergashjonning tahlillari natijasini bilaylik, keyin yo'lga chiqamiz. Sen uyingda bo'lib tura qol, hali o'zim chaqirtiraman.

Abdulla: Xo'p bo'ladi, ustoz, uyda kutib o'tiraman.

Qodir domla: To'xta, menga tashkilotchilarning telefon raqamini berib ket. (*Abdulla Qodir domlaniq telefoniga raqam yozib, qaytarib uzatadi.*)

Abdulla: Kecha shu raqamdan telefon qilishgandi.

Qodir domla: Bo'пти, sen boraver. O'zim chaqiraman.

Abdulla sahnadan chiqib ketadi. Qodir domla raqam teradi. Birpas telefonning chaqirgan ovozi eshitilib turib, go'shaddan qiz bolaniq ovozi eshitiladi.

Qodir domla: Allo. Assalomu alaykum, menga London olimpiadasi tashkilotchilari kerak edi.

Qiz bolaniq ovozi: To'g'ri bog'ladingiz, qanday yordam kerak?

Qodir domla: Haliq, haliq, men Usmonov Abdullaniq o'qituvchisi bo'lamen.

Qiz bolaniq ovozi: Eshitaman. Xizmat.

Qodir domla: Bugun yo'lga chiqayotgan edik. Shunga qanday hujjatlar kerak, o'zimiz bilan qancha pul olaylik, shuni yana bir marta aniqlashtirib olay, degandim?

Qiz bolaniq ovozi: To'g'ri ko'rsatilgan manzilga kelaverasizlar. Kecha Usmonovning o'zi bilan gaplashganimizda yangi narxlar haqida aytgan edik. Sizga aytdim?

Qodir domla: Nima... Narx... Nega yangi bo'ladi?

Qiz bolaniq ovozi: Boshida ang-lashilimovchilik bo'lib, sizlarga chipta va mehmonxonaning o'tgan yilgi narxi bo'yicha ma'lumot berishgan ekan. Xato bizlardan o'tgan. Bu uchun uzr so'raymiz. Boshqa ishtirokchilarga ham xabar berdik.

Qodir domla: (*Past va bo'g'iq ovoza*) Ha, kecha telefon yaxshi eshitilmadi, degandi. Tushunmagan bo'lsa kerak. Yangi narxlar qancha ekan, qizim?

Qiz bolaniq ovozi: Domla, yo'lkirani alohida aytaymi yoki umumiy xarajatlarni?

Qodir domla: Hammasini birato'la aytib qo'ya qoling, qizim.

Qiz bolaniq ovozi: Umumiy hisobda besh ming yetti yuz dollar bo'ladi.

Qodir domla: Rahmat, qizim. Sog' bo'ling...
Qodir domla telefonni o'chiradi. Sahna g'irashira yoritiladi. Yorug'lik faqat Qodir domlani yuziga tushib turadi.

Qodir domla: Endi Abdullaga nima deyman? Ey xudo, nega shuncha ovora qilding?!

Shu payt eshik taqillaydi. Sahna yorishadi.

Qodir domla: (Past va horg'in ovozda gapiradi.) Eshik ochiq, kelavering.

Sahnaga Malika Shavkatovna bilan Sobir kirib keladi. Qodir domla bilan salomlashishadi.

Malika Shavkatovna: Domla, o'sha kuni sizga yordam bera olmaganim uchun juda xijolat bo'ldim. O'zingiz ham gapimni oxirigacha eshitmay ketib qoldingiz. (Malika Qodir domlaga konvert uzatadi.) Ichida roppa-rosa uch ming dollar bor.

Sobir: Domla, yigitlar maslahatlashib, boricha yig'ib turgan edik. yetmagani Malika qizimgiz qo'shdi.

Qodir domla o'rnidan turib, Malika va Sobirni quchoqlaydi.

Qodir domla: Malika, Sobirjon, sizlarga mingdan-ming rahmat. Yana ozroq kechikkanlaringda mendan ayrib qolarmidinglar. (O'zining gapi o'ziga nash'a qilib, kulib yuboradi.) Bugun bir nafi o'pqonga mashinamni uch mingga sotib, pulni tayyorlab o'tiruvdim. Hozirgina tashkilotchilarga qo'ng'iroq qilsam, narx-navo yangilandi, deb qolishdi. So'rasam, besh ming

yetti yuz dollar olib keling, deyishdi. Shunga hafsalam pir bo'lib, xudoga nola qilib o'tiruvdim.

Sobir: Mashinani yarim puliga sotibsiz-ku?

Qodir domla: Iltasangiz shu, yoqmasa, bozorga olib chiqib, uch-to'rt kun kutasiz, deb turib olgandan keyin nimayam qilardim.

Sobir: Kim ekan u vijdonsiz? Manzilini bersangiz, pulini berib, mashinangizni qaytarib olib kelaman.

Qodir domla: Nega endi olib kelarkansan, Sobirjon? U meni majbur qilgani yo'q. Pul kerak edi, sotdim. Endi bu masalaga qaytmaymiz.

Malika Shavkatovna: Ixtiyoringiz, domla, unda bizga ruxsat. Ishlar ko'p. Abdullajonga omad tilab qo'ying, kutib olgan, albat-ta, chiqamiz. O'zingiz ham bir oshga qarzdor bo'ldingiz.

Qodir domla: Bir emas, ming marta osh qilib beraman. O'zi sal oldin Abdullajonga aytuv-dim, g'olib bo'lib qaytsang, elga qo'y so'yib, osh beramiz, deb. Birpas o'tirsanglar, hozir ham oshga unna yuboraveraman.

Sobir: Domla, ukamiz Londondan g'olib bo'lib kelgan kuni oshni, mana, biz bo'yimizga olamiz. Aeroportda bitta qo'chqor, qishloq gularida bitta qo'chqor, maktabda bitta qo'chqorni dumalatmagan, nomardi!

Malika Shavkatovna: Bo'ldi-bo'ldi, domla, endi bizga ruxsat bering. Indamasam, Sobirjon Londonga borib ham qo'y so'yaman, deb yuboradi hozir.

Sobir: London nima bo'пти? Xudoga shukr, qo'ramda qo'y-qo'zim bor. Xohlagan joyimga borib so'yaveraman.

Malika Shavkatovna: Bo'ldi, Sobirjon, bo'ldi, biz yutqazdik. Domla, qani endi duo bering, hazil-hazil bilan ko'p o'tirib qoldik. U yoqda ish ko'p, o'zingiz bilasiz...

Qodir domla: Ilohi omin, sizlardan xudo rozi bo'lsin, Oллоhu akbar.

Sobir bilan Malikaxon Qodir domla bilan xayrlashib chiqib ketishadi. Qodir domla so'zida o'zi bilan o'zi suhbatlashib o'tiribdi.

Qodir domla: Ey xudoyim, yaxshiyam, do'st-dushmaning oldida sharmanda qilmanding. O'zingga shukr!

Kutlmaganda sahnaqa Farog'at yanga izillab yig'lagancha kirib keladi.

Qodir domla: Hoy xotin, qo'rqitma meni. O'zi shu turishda ham bugun ikki marta yuragim yomon bo'ldi. Nega yig'laysan, Ergashjon qani, bunday o'pkangni bosib olib, gapirsang-chi?

Farog'at yanga: Olib qolishdi, zudlik bilan jigarini operatsiya qilish kerak ekan.

Qodir domla: Nega operatsiya qiladi? Axir, ertalab o'z oyog'i bilan yurib chiqib ketgan edi-ku? Buncha vahimani qayerdan ko'tarib kelding, operatsiyasiz davolasa bo'lmasmikan?

Farog'at yanga: Analiz natijalari juda yomon chiqipti. Qancha tez operatsiya qilinsa, sog'ayib ketish imkoni shuncha ko'proq bo'lar ekan.

Qodir domla: (Yuragini changallab o'tirib qoladi.) Shunday degin...

Farog'at yanga: Tezroq harakat qiling, dadasi. Operatsiyaga juda katta pul ketadi, deyishyapti. Endi pul topish kerak, dadasi, pul!

Qodir domla: Topamiz, xotin, topamiz. O'zingni bos, borib suv-puv ichib ol.

Farog'at yanga sahna-chetidagi daraxtga ilingan chelakdan suv olib ichadi.

Farog'at yanga: Mashinani sotdingizmi?

Qodir domla: Ha, sotdim, xotin, sotdim.

Farog'at yanga: Pul qancha bo'ldi?

Tezroq shifoxonaga borishimiz kerak.

Qodir domla: Uch mingga sotdim.

Farog'at yanga: Nima? Yangi mashinani yarim puliga sotdingizmi? Kimga? Ey xudo, odam ham shunchalik sodda bo'ladimi?

Qodir domla: Abdullaionning borib ketishiga yetsa bo'ldi deb, so'raganiga berib yuboribman.

Farog'at yanga: (Baqirib yuboradi.) O'g'lingiz og'ir ahvolda yotipti, tushunaysizmi? Farzandingizning hayoti qil ustida! Shu paytda qanday qilib xayolingizga Abdullaion sig'ayapti? U hali yosh bo'lsa, buning ustiga soppa-sog'. Bu uy-dagi sharoitni unga o'zim tushuntiraman. Yo'q demaydi. Siz bor pulni oling-da, shifoxonaga boring!

Qodir domla: Hoy esi past xotin, nimalar deyapsan, Ergashjon faqat sening bo'lang emas-ku? Bir ilojini topamiz.

Farogʻat yanga: Agar bolamga bir gap boʻlsa, sizni ham, oʻsha yetimchani ham bir umr qarʻab oʻtaman!

Farogʻat yanga uyga kirib ketadi. Sahna nim-qorongʻu holatga keladi. Vahimali kuy yangraydi. Qodir domla u yoqdan-bu yoqqa tez-tez yuradi. Uning harakatlaridan asabiylashayotgani yaqqol sezilib turadi. Soʻng xontaxta ustidagi ikki taxlam pulni qoʻliga olib, birtapas tomoshabinlarga qarab turadi. T.Qodirovning "Oʻxshaydi-ku" qoʻshigʻi past ovoza beriladi. Qorongʻulikda subhat matni aniq-tiniq eshitiлади.

Qodir domlanning ovozi: Nahotki, Farogʻat, men ham ota boʻlamanni? Yetkazganiga ming shukur! Endi tobutimning egasi bor.

Farogʻat yanganing ovozi: Shu chogʻda tobutni eslaganingiz nimasi boʻldi?

Qodir domlanning ovozi: Ey, sen qa, yerdan ham tushunarding, Farogʻat. Har er-kakka kun kelib qazosi yetganda tobutiga egalik qiladigan oʻgʻil kerak, yetkazganingga shukur. Farogʻat, oʻgʻilimizni ismini Ergashjon deb qoʻyamiz. Orqasidan etak-etak uka-singillarini yetaklab kelsin.

Avval chaqaloq yigʻisi, birozdan soʻng bola kul-gusi eshitiлади.

Qodir domlanning ovozi: Qani, oʻgʻlim, dada degin, dadajon degin!

Yosh bolaning "dada" degan ovozi eshitiлади.

Farogʻat yanganing ovozi: Ergashjonim olim boʻladi, olim boʻlib dunyo kezadi hali.

Qodir domlanning ovozi: Anovi radioningning qulogʻini buira, xotin. Oʻgʻlimiz oʻynayapti. Qoʻlingni balandroq koʻtar, oʻgʻlim, qulochingni kattaroq och, quchoqʻingga dunyo jo boʻlsin! (Yana bola kulgusi eshitiлади.) Bir chiroyli oʻynashini qara, ha, ota oʻgʻili!

Ergashning ovozi: (Yosh bolaning ovozi-da gapiradi.) Dada, siz ham oʻynang. (Er-xotinning kulgusi eshitiлади.)

Qodir domla oʻynamogʻchi boʻlib ikki qoʻlini tepaga koʻtaradi. Ikki qoʻlida ikki taxlam pul, birtadan toʻxtab qoladi. Yuzidagi tabassum yoʻqolib, yigʻlab yuboradi. Ikki qoʻlini tizzalariga qoʻyib, xoʻrsiniq aralash gapiradi.

Qodir domla: Meni kechir, bolam, kechir... Shu gapni aytib, bir-bir bosganicha sahnadan chiqib ketadi. Vahimali musiqa balandlashadi. Sahna butkul qorongʻulashadi.

OLTINCHI KOʻRINISH

Sahna sekin-asta yorishadi. Sahna ortida kar-nay-surmay, quvnoq kuy-qoʻshiq sadolari eshitiilib turibdi. Sahnada Hokim, Malika va biz choyxonada koʻrgan tadbirkor yigitlar. Sahna tepasida "Aeroport" yozuvi oʻchib-yonib turibdi. Hokim odamlar orasidan ajralib chiqib, tomoshabinlarga yaqin kelib gapiradi.

Hokim: Bizning tumanimizdan, yanayam aniqrogʻi, shaxsan mening hamqishlogʻim Ab-

dulla Usmonov London shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon yosh matematiklari olimpiadasida g'olib bo'ldi. Bu Qodir domlanning yutug'i! Bugun Qodir domla haqida qancha gapirsak, shuncha kam. (*Biroz jimlikdan so'ng.*) Bunday deyshimning sababi, domla Abdullaajonni o'zi tarbiyalab, o'zi Londonga jo'natib, kasbga fidoyilik qanday bo'lishini, odamiylik nima ekanligini bizga yana bir marta ko'rsatib qo'ydi. Yaratgan nimani ki ne'mat qilib bergan bo'lsa, yaxshilik yo'lida ayamadi. Bugungi bayram Qodir domlanning sa'y-harakatlari mevasi!

Hokim yana kutib oluvchilar orasiga aralashib ketadi. Endi olomon orasidan Sahobiddin ajralib chiqadi. U ham sahna chetiga kelib, tomoshabinlarga yuzlanib gapiradi.

Sahobiddin: Abdullani Londonga jo'natish masalasi ko'tarilganda shaxsan o'zim tashabbuskor bo'lganman. O'shandayq bu bolaning iste'dodiga qoyil qolganman. Shuning uchun qo'lmdan kelgancha uni qo'llab-quvvatladim. U barchamizning ishonchimizni oqladi. Yuzimizni yorug' qildi. Yashavor, akasining ukasi!

Sahobiddin ham ortga o'girilib, odamlar orasiga singib ketadi. Kutilmaganda sahnada Muzaffar paydo bo'ladi.

Muzaffar: Bular aytayotgan Abdulla Usmonov aslida, mana, kaminianing jiyani bo'ladi. O'roqda yo'q, mashoqda yo'q odamlarning bu yerga kelib olib, karillashini qarang, "Abdul-

lani men nazorat qilganman. Abdullani men qo'llab-quvvatlaganman" deb. Hammasi bekorlarning beshitasini aytibdi. Mana, men uni rahmati akamning o'rnini bildirmaslikka harakat qilib, qo'llab-quvvatladim. Qiziqishi borligini bilib, matematikadan repetitora berdim. Repetitora oyma-oy jaraq-jaraq pul to'lab turdim. O'qisa, odam bo'lsa, kelajagi porloq bo'ladi, dedim-da. Jiyanimning zehni o'tkir, meniga tortgan. Mana, xalqaro olimpiadada g'olib bo'lib, barcha qilgan xarajatarimni oqladi. Amani-jiyani bir bo'lib, akamning ham ruhini shod qildik-da, a, labbay.

Shu payt samolyotning pastlayotgan tovushi eshitiladi. Odamlar orasidan "Ana-ana, kelishdi, karmg-yurnayni balandroq chalinglar" degan ovozlar eshitiladi. Oradan biroz o'tib, sahnaga jomadon sudragan Abdulla chiqib keladi. Hamma birin-ketin uni quchoqlab tabriklaydi. Kimlardir uni tepaga irtg'itadi.

Hokim: Abdullaajon, yashavor, bolam, ishonchimizni oqlading. Hamma tengdoshlaring sendan o'rnak olishsin. Butun tumanga o'zim to'y beraman.

Muzaffar: Abdullaajonning amakisi bor, hokim buva.

Sobir: Hokim buva, so'zingizni ikki qilganim uchun uzr-u, ammo-lekin Abdullaajon Londonga ketishidan avval, g'olib bo'lib qaytsa, albatta, qo'y so'yib, elga osh beraman, deb latf qilib qo'ygan-

man. Bizda gap bitta bo'ladi. Kim nima qilsa, mayli, faqat mendan keyin navbatga yozilsin.

Muzaffar endi Sobirga bo'yini cho'zib keladi.

Muzaffar: Nima-nima, sen nima deypsani, hoy Sobir. Puling ko'payib qoldimi? Bor-bor, toshingni ter, Abdullajonning o'z tug'ishgan amakisi bor. U sen so'yadigan tirtiq qo'ziga muhtoj emas.

Sobir Muzaffarga hayron bo'lib qaraydi. Bu orada gapga Sahobiddin aralashadi.

Sahobiddin: Abdulla, ukam, bular nima deyapti, o'zi? Eshitayapsanmi, akam bor, hammasini o'zlar hal qiladi deb ayt, bu maqtancholarga.

Abdullaning qulog'iga hech kimning gapi kirmaydi. Ko'zlari alang-jalang kimnidir qidirayotgani yaqqol sezilib turadi. Va nihoyat sabr-toqati tugab, yonida turgan Sobirdan so'raydi.

Abdulla: Sobir amaki, onam gani? Ustozim, Qodir domla kelmadilarmi? Seni o'zim kutib olaman deb, kuzatib qo'ygandilar. Nega ko'rilmayaptilar?

Abdullaning savoliga Sobirdan oldin Hokim javob beradi.

Hokim: Endi, bilasanmi, Abdullajon, ustozing hozir kelolmaydi. Sal keyinroq o'zim seni u kishining oldiga olib boraman. Hozir uyga, onangning oldiga boramiz.

Abdulla: Qodir domla ham uydamlilar?

Hokim: Abdullajon, endi sen yosh bola emassan, Qodir domla senga chin ma'noda ota-

ilk qildi. Sen Londonga ketadigan kuning Ergash akang shifoxonaga tushib qoldi. Ming afsus, biz buni juda kech eshitdik. Qodir domla shu kuni hali aeroportga, hali shifoxonaga qatnabdi. Seni Londonga jo'natgach, Ergashjonga o'z jigarini beribdi. Shu holida ham seni unutmadi demochiman, sen ham buni unutm, o'g'lim. Endi yanayam kuchliroq o'qib, ustozning ishonchini oqlashing kerak.

Abdulla: O'zlari yaxshimi? Hozir qayerda?

Hokim: Abdulla, uyingga boraylik, keyin seni o'zim...

Hokim so'zini tugatmasdan odamlar orasidan Qodir domlanning g'oliragan ovozi eshitiladi.

Qodir domla: Abdulla, bolam!

Abdulla: (Xursandligidan baqirib yuboradi.) Ustoz!!!

Odamlar orasidan yugurib o'tayotib, nogironlar aravachasida o'tirgan ustozini ko'rib, birdan to'xtab qoladi. Farog'at yanga hamda Nasiba do'xtirlar nogironlar aravachasini surib kelishmoqda. Qodir domla nogironlar aravachasida o'tiribdi, lekin uning ruhi tetikligini tomoshabin yaqqol his qiladi. Uning tizzasida bir dasta gul. Abdulla yugurib borib, cho'kkelab o'tirib, ustozining oyoqlarini quchoqlab, yig'i aralash savol beradi.

Abdulla: Sizga nima bo'ldi, ustoz?

Farog'at yanga: Yig'lama, ustozing soppa-sog'. Sen bola uch-to'rt kun jo'ralaring bi-

lan mazza qilib o'ynab qol. Bu chol shifoxonadan chiqsa, yana ko'zingni ochirmay qo'yadi.

Abdulla: Ustoz, nega unday qildingiz? Nega Ergash akam og'ir ahvolda ekanini aytmadingiz? Men uchun mashinangizni qaysidir qallobga sotganingizni Londonda turib, sinfdoshlarim bilan telefonda gaplashganda eshitdim. Nega mashinangizning pullarini Ergash akamga emas, menga berdingiz?

Qodir domla gapirmoqchi bo'lib og'iz juftlaydi-yu, gapirmaydi. So'ng aravachasini sekin surib oldinroqqa chiqadi.

Qodir domla: Qo'yaver, buyog'i bilan ishing bo'lmasin sening.

Qodir domla so'zini tugatishiga odamlar orasidan Sobir, Hokim va Malika ajralib chiqib keladi va birin-ketin domla bilan ko'rishishadi. Malika gap boshlaydi.

Malika Shavkatovna: Domla, duo ber-ring. Uyda Saida momo bilan onasi kutib o'tiribdi. Qaynona-keini har qancha sog'ingan bo'lishmasin, "biz Abdullajonni ota uyida kutib olamiz" deb aeroportga kelishga unashmadi.

Qodir domla: Kim deding? Saida momo dedingmi?!

Malika Shavkatovna: Ha, tezroq bora qolaylik, ular ham jigartarini sog'inishgan. Axir, bir oydan buyon ko'zlari to'rt bo'lib kutishayapti.

Hokim: Shoshmang, Malika Shavkatovna, Abdullajonga syurprizimiz bor, uyda bermoqchi

edim-u, Qodir domla o'zlari shu yergacha kelgan ekan, hozir hammaning oldida bera qolaylik. Shahnazaxon, sovg'ani olib keling.

Sahnada turganlarning hammasi "Nima gap, qanday syurpriz" degan ma'noda bir-biriga qarab, pichirlashishadi. Kotba qiz sahnaga qo'lida patnis bilan chiqib keladi. Hokim sahna o'rtasiga kelib, baland ovoza gapiradi.

Hokim: Viloyatimiz rahbariyati tomonidan London olimpiadasi g'olibi - Abdulla Usmonov (Patnisdan mashina kalitini olib, boshi uzra baland ko'taradi.) "Spark" mashinasi bilan taqdirlanadi.

Hamma birdan qarsak chalib yuboradi. Hokim kalitni Abdullaga uzatayotgan payt orqada turgan amakisi Muzaffar yugurib kelib, kalitni Hokimning qo'lidan oladi va gapiradi.

Muzaffar: Hay-hay, shoshmanglar, shoshmanglar, Abdullajon hali mashina boshqarish yoshiga yetmagani bois, ushbu mashinani (Sahnada hamma dong qotib qolgan. Ko'pchilik Muzaffarga nafrat nazari bilan qaraydi.) agar.. agar Abdullajon rozi bo'lsa... Shu... Shu "Spark"ning kalitini Qodir domlaga topshirsak.

Sahnadagilar biroz qotib turishadi va birdaniga avval bir-ikki odam, keyin hamma qarsak chalib yuboradi. Olomon orasidan "To'g'ri-to'g'ri" degan ovozlari eshitiladi. Shu payt yana Qodir domlani guldiregan ovozi eshitiladi.

Qodir domla: Sen bola o'zgarmading-o'zgarmading. Menga mashina-pashina kerak

emas. Bu hukumatning Abdullajonga sovg'asi, o'ziga buyursini!

Abdulla: Usto, amakin to'g'ri aytdi. Siz men olimpiadada qatnashishim uchun mashinangizni sotingiz. Endi bu mashina sizniki. Ergash akam tuzalib chiqqach, minadi.

Qodir domla: Hali kuch-quvvatim bor, Ergash akangga o'zim mashina olib beraman. Bu sovg'a seniki. O'zingga buyursin. Men uchun eng katta sovg'a, bu – sening g'alabang. (*Biroz jim turib, tomoshabinga yuzlanib*) O'zim hammaga bu dunyo sinovli dunyo, xudo bergan ne'matni unutib qo'ymanglar, debman-u, o'zim katta sinov oldida turganimni sezmay qolibman. Xom sut emgan bandamiz-da. Yaratganga noshukurlik qilib, sal qolsa, gunohga botay debman. Aslida bu dunyoda boylik, mansab-martaba, hatto omadsizlik ham sinov uchun beriladi bizga. Agar zarracha noshukurlik qilsak, xato qilsak, bu dunyoda bo'lmasa, u dunyoda, albatta, javobini beramiz. Abdullajon, unutm, men ham sinovdaman.

Abdulla: Usto, ming rahmat sizga. Siz menga nafaqat matematika fanidan, balki insoniylik, odamiylik fanidan ham unutilmas saboq berdingiz. Shu mashinani siz ola qoling, yo'q demang.

Qodir domla: Qarshingda ustozing turganda, gap qaytarganing nimasi, aqlsiz. Men mashina olish uchun jonimni jabborga bermadim, uqdingmi?

Abdulla: Uqdim. (*Yerga qaraydi.*)

Muzaffar: Domla, boshida bir xato qildim, mendan ranjimang. Men siz aytayotgan sinovdan o'ta olmadim, chog'i... Mayli, aytganingizcha bo'lsin. Abdullajonning yutug'i o'z-o'zida qolsin. (*Cho'ntagidan kalit chiqarib uzatadi.*) Mana, bu o'zingizning omonatingiz. Uni Ergashga atab olgansiz, o'ziga buyursin.

Muzaffar kalitni domlaga bergach, yengil xo'rsinadi.

Qodir domla: Men hozir sening pulingni qaytarib bera olmayman.

Muzaffar: Men sizdan pul so'rayotganim yo'q, domla. Mashina happayi halol o'zingizniki. Men bergan pulingga mingdan-ming roziman.

Shu paytda sahnaga kostyum-shim kiyib, gals-tuk taqib olgan ikki basavlat mehmon kirib keladi. Ular avval borib Hokim bilan ko'rishadilar. Hokim kelib, Abdullajonning qo'lidan yetaklab, kelganlarning oldiga olib boradi. Hamma hayron bo'lib qolgan. Hokim Abdullajonni keluvchilarga tanishtiradi.

Hokim: Mana, Abdullajon Usmonov. Dunyoni lol qildirgan o'quvchimiz mana shu azamati (*Qodir domlani ko'rsatib*) Mana bu inson shu azamatning ustoz.

Kelganlar ketma-ket Abdullajonni bag'irlariga bosib ko'rishadi. Birin-ketin domlanning oldiga borib, qo'l berib so'rashishadi. Ulardan yoshi kattaroq'i so'z boshlaydi.

B i r i n c h i m e h m o n: Domla, agar tumman hokimi Orifjon Tursunovich bizni Abdulla Umonov London olimpiadasida qatnashayotganidan, siz ko'rsatgan fidoyilikdan xabardor qilmaganida, bugun biz bu yerda bo'lmaz edik. Biz barcha rahbarlar nomidan sizlarni tabriklagani keldik va shuni aytishim kerakki, (*Mehmon yig'ilganlarga yuzlanib gapiradi*) yana bir xushxabar, davlatimiz rahbari fidoyi o'qituvchi Qodir Jo'rayevni "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni bilan taqdirlash to'g'risidagi farmonga imzo chekdi. Yaqinda tantanali ravishda orden topshirishga kelamiz. Qani endi barcha o'qituvchilarimiz sizday fidoyi bo'lishsa? Aslida oramizda jonkuyar, fidoyi insonlar ko'p, faqatgina biz ularni payqashimiz, anglashimiz va qo'llab-quvvatlashimiz kerak, xolos!!!

Yana qarsak bo'lib ketadi. Sahna o'rtasida turgan Sobir sahna ortiga qarab baqiradi.

S o b i r: Tursun aka, qo'chqorni dumalating! Uning so'zi qarsakka ulanib ketadi. Qarsaklar fonida sahna asta-sekin qorong'ulashadi.

Tanom.

Toshkent, 2020.

URUSHNING BIR KUNI

Qisqa metrojli badiiy filmining adabiy ssenariysi

1-epizod

Afg'oniston. Afg'on xonadoni. Eski, suvoqlari ko'chib yotgan, ba'zi joylari o'pirlib tushgan xaroba kulba. Xonada to'rt kishi. Ota-ona, farzand, yoshi yetmishlardan oshgan kampir – buvi. Ular besh yoshlar atrofidagi bolachaning tepasida g'uj bo'lib turishibdi. Bolacha terga botgan, yosh onaning ko'zlari to'la yosh. U suvga botirilgan doka bilan bolaning a'zoi baddanini to'xtovsiz artiyapti. Shu payt tashqarida ketma-ket o'q ovozi eshitiladi. Ona o'zini bolakay ustiga tashlaydi. Buv'i o'tirgan joyidan qimirlamaydi. Yerga ma'nosiz qarab o'tiraveradi. O'ttiz yoshlar atrofidagi soch-soqoli o'sgan, qoshlari qalin ota o'rnidan turib, siniq deraza oldiga boradi va darpardani sekin ko'tarib qaraydi. Kadrda harbiylardan qochayotgan afg'onlar ko'rsatiladi. Ulardan biri o'q yeb yiqiladi. Ikkinchisi yashirinadi. Ota derazadan uzoqlashadi. Kutilmaganda ona baqirib yuboradi. Bolakayning ko'zi yumilib yotgani ko'rsatiladi. Uning nafas olayotgani ham sezilmaydi. Ona bolakayning yuzlariga urib ko'radi. Keyin yelkachasidan ushlab qattiq-qattiq silkiydi. Ona bor ovozi bilan baqirib yig'lab yuboradi. Bola ko'zini ochmaydi. Ona o'rnidan irtgib turib,

dahlizda turgan chelakni ko'tarib keladi. Unda suv qolmagan. Keyin ona qumg'on, choynak va boshqa idishlarni shoshgancha ketma-ket ochib ko'radi. Suv yo'q.

Ona: Suv kerak.

Ota: Biroz chida, sho'raviylar ketishsin. Olib kelaman.

Ona: O'zim chigaman. Ular ayol kishini otishmaydi.

Erkak baqiradi.

Ota: Yo'q deyapman senga.

Kampir er-xotinga qarab o'tiribdi. Kadr kampirning nigohidan ularga qaraganda faqat ularning xatti-harakati ko'rinadi. Ammo hech qanday ovoz eshitilmaydi. Kampir quloqlari orqasiga qo'lini qo'yib, ularning gaplarini eshitmoqchi bo'ladi. Eshitmagach baland ovoza gapiradi.

Kampir: Nima bo'lyapti?

Yosh kelin bo'shagan suv chelagini ko'rsatadi.

Kampir: Suv olib kelish kerakmi?

O'g'li qo'li bilan "yo'q" ishorasini qiladi, xotin esa "ha" ishorasini beradi.

2-epizod

O'sha xonadonning tashqari ko'rinishi. Kampir yuziga paranjisini tushirib olib, eshikdan chelak ko'tarib chiqib keladi. Kampir askarlarni ko'rmaydi. Ularga qarama-qarshi tomonga juradi. Kadr kampirning old tarafidan yurib ketayotganini ko'rsatadi, kampirning ortida uzog-

da askarlar o'zlari otgan afg'onni tintishayapti. Kampir ko'chadagi quduq ipiga chelagini bog'lab suv tortadi va uyi tomon yura boshlaydi. Shu payt soqchilik qilayotgan askar ortiga o'girilib barmaylixotir yurib kelayotgan paranjili yo'lovchini ko'rib baqirib yuboradi.

Soqchi: To'xtal!

Hamma ortiga o'girilib qaraydi. 18-19 yoshlardagi soqchi ro'parasidan kelayotgan uzun qora paranjilik, qo'lda chelak ko'tarib olgan yo'lovchiga qarab, miltiq o'qtalib turibdi.

Soqchi: To'xta, yuzingni och, ayol kishi bo'lsang, otmayman.

Komandir: O't!

Soqchi: To'xtal!

Komandir: O't dedim, haromil!

Soqchi havoga o'q uzib, miltiqni yana ayoqla o'qataladi va ko'zlarini qattiq yumadi. Kadr kampirning sochvon ostidagi nigohiga qaratiladi. Kampir askar nima talab qilayotganini tushunmaydi, uning qulog'iga tushunarsiz shovqin ovozi eshitiladi.

Soqchi: To'xtasang-chi. Ultimeos.

Kampir unga qarab yura boshlaydi. Soqchi o'q uzadi. Kampir yiqiladi. Kadr yirik planga o'tadi. Qora, yupqa paranji sochvoni ortidan kampirning hayrat qotib qolgan ko'zlari ko'rsatiladi. Kampirning ajinli yuzlari tirishadi, lablarini qattiq tishlab, o'q tekkan joyini changallab, o'rnidan turishga urinadi. Ayol afg'on tilida qiyinalib, in-

qillab gapiradi, uning gaplari titrda ketadi.

Kampir: Nabiramga... Suv... U... Kasal...

Kampir o'q tekkan qornini qo'li bilan g'ijimlaydi va ingrab o'rnidan turadi. Biroz dovdiraydi va chelakka qaraydi. Chelakda yarmi qolgan chayqalib turgan suv ko'rsatiladi. Kampir chelakni qiyinalib ko'taradi.

Sogchi: To'xta.

Kadr yana kampirning nigohiga qaytadi. U bujmaygan yuzini bazo'r sogchi tomonga buradi. Uning miltiq o'qtalib turganini ko'radi. Qo'li bilan "otna" degandek ishora qilib, o'z uyini ko'rsatadi.

Komandir: Ot.

Sogchi: U nimadir demogchi...

Komandir: Hozir borsam, avval seni otaman, iflos.

Sogchi yana ko'zini chirt yumib, o'q uzadi.

Kampir yerga yiqiladi. Ular biroz qarab turishadi.

Kampir qimirlamaydi.

Komandir: Molodes!

Keyin askarlarga qarab gapiradi.

Komandir: Jasadni yo'ldan chetga chiqarib

tashlanglar.

Askarlardan biri borib paranjini oladi. Ko'zlar katta-katta ochiq qolgan kampirning ajin bosgan yuzi yirik planda ko'rsatiladi. Sogchi kampirni ko'rib yerga o'tirib qoladi.

Sogchi avval chelakka, keyin kampir imo qilgan ochiq darvoza tomonga qaraydi va boshini ushlaydi. Keyin nimanidir tushunganday o'rnidan

sapchib turadi. Kampirning qo'ldan chelakni olmogchi bo'ladi. Jonsiz kampirning qo'lini chelakdan ololmaydi...

3-epizod

Afg'on xonadoni. O'sha uy. Kampirning o'g'li deraza oldida ko'zlari qizarib, boshini changalab o'tiripti. Uning oldida xotini bir farzandiga, bir askarlar ko'tarib ketayotgan qaynonasiga qaraydi, rangi oqarib ketgan.

Shu payt eshik sekin ochila boshlaydi. Er xotini ortiga oladi. Xotin otmogchi bo'lib, choynakni qo'liga ushlab oladi. Eshik ochilgach, kimningdir qo'li chelakni yerga sekin qo'yadi va eshikni kat-taroq ochadi. Sogchi avval er-xotingga, so'ng yerdagi yotgan bolakayga qaraydi va biroz tikilib qoladi. So'ng yana er-xotingga qarab rus tilida gapiradi.

Sogchi: Meni kechiringlar...

Sogchi ko'zlaridan yosh qalqiydi, so'ng beliga boylangan suv idishini olib, ichidagi suvni chelakka bo'shatadi va eshikni yopib chiqib ketadi.

Tamom.

Toshkent, 2020.

DUNYODAGI ENG GO'ZAL SURAT Qisqa metrajli badiiy filmning adabiy ssenariysi

Pak in Sukning shu nomli hikoyasi asosida

1-epizod

Kadr ochilmasdan bolaning o'tinga tekkan zarbi eshitiladi, so'ng kadr ochiladi. Nasiba so'ng-gi o'tinni maydalab bo'lgach, ularni quchoqlab, uyiga olib kiradi. O'tinni pechkaga qalab, qo'lini olovga tutib, uy to'rida turgan erining surati-ga hamda uning tagiga xuddi shunga taqildan chizilgan qizining suratiga qarab lablarida nim-tabassum paydo bo'ladi. Xayollarini soatning yet-tiga qo'yilgan qo'ng'irog'i bo'lib yuboradi. Narigi xonaga kirib, qizini uyg'otib chiqadi. Qiz yuviniib kelib, xontaxta ustidan rasm chizilgan varaq-la-rini hamda rangli qalamlarini yig'ishtirib olib, dasturxon yozadi va o'tiradi. Onasi pechka us-tidagi choynakni olib qizning oldiga qo'yadi. Qiz-cha onasiga kulib qaraydi. Onasi qizga shunchaki qarab qo'yadi. Qizcha qo'lchalari bilan onasining yuzini ikki tomonga tortib sun'iy tabassum pay-do qiladi. Nasiba qizchanning qo'llarini yuzidan olib, o'rnidan turadi va deraza oldida turgan gilam to'qish uskunasi bilan oldiga o'tirib, gilam to'qishda davom etadi. Qizcha maktab sumka-sini yelkasiga ilib, eshikdan chiqadi. Onasi avval

qiziga, so'ng dasturxonga qaraydi, o'rnidan turib, dasturxondagi nondan kattaroq bo'lagini olib, qizining ortidan yugurib chiqadi va qizning qo'li-ga beradi. So'ng peshonasidan o'pib, ortga qay-riladi. Eshik oldiga yetganda qiziga qayrilib qa-raydi. Qizcha onasi bergan nonni darvoza tagida yotgan itga berayotganini ko'rib, yugurib borib, qizining qo'lidan nonni tortib oladi. Jahl bilan ini haydaydi. It ketadi. Ining jovdirab turgan nigohi yirik planda ko'rsatiladi. Nasiba nonni qizcha-niing yelkasiga ilingan sumkasiga soladi. Qizcha indamaydi. Uy eshigini ochadi.

2-epizod

Kadr qizcha sinfxona eshigini yopib, sinfga kirishi bilan ochiladi. Dars jarayoni, osmon gum-burlab, jala yog'ayotganini ko'rish uchun bolalar sinfxona derazasidan hayrat bilan tashqariga qarashyapti. Ulardan biri qo'li bilan osmonga ishora qilib, yonidagi do'stlariga nimalarnidir ko'rsatishga harakat qilayapti. Bolalar xursand, qo'lchalarni derazadan chiqarib yomg'irni tut-moqchi bo'lishadi. Qizcha shunchaki osmonga tikilib turibdi.

3-epizod

Nasiba tarnov to'ldirib tushayotgan yomg'ir suviga, keyin soatga qarab ko'zlarini katta-kat-ta bo'lib ketadi va uyga yugurib kiradi. Boshiga qalin ro'molini tashlab, eshikdan yugurib chiqib

ketadi. Yomg'ir kuchli yog'ayotganligi sababli boshini ko'tarmay yugurib ketayotgan Nasibaning oyog'i sirg'alib, ko'lmakka yiqilib tushadi. Nasiba o'rnidan turib, yugurishda davom etadi, ust-boshi loy, shalabbo holatda do'koniga shoshib kiradi va do'kondan bir yomg'irpo'shni olib, do'konchi qizning oldiga qo'yib, ro'moli ichidan bir hovuch g'ijimlangan pulni olib, hammasini qo'yadi. Do'konchi pulni sanab ko'rib, boshi bilan yo'q ishorasini qiladi. Nasiba ortiga o'girilib, kichikroq yomg'irpo'shni oladi va do'konchiga qaramay chiqib ketadi. Do'konchining ensasi qot-gancha Nasibaning ortidan qarab qoladi.

4-epizod

Maktab hovlisida Nasiba maktab tomonga qarab turadi. Qo'ng'ir oq chalinadi. Bolalar daf-tar-kitoblarni sumkasiga solib, birin-ketin chiqib boshlashadi. Qizcha dugonalari bilan xonadan chiqadi. Zinadan tushayotib, maktab eshigi oldida ust-boshi loy, shalabbo Nasiba qizini ko'rib, quvonch bilan bir qo'lida yangi yomg'irpo'shni ko'tarib, ikkinchi qo'lini silkiydi. Ko'zlari quvonchdan porlaydi. Bu holat chetdan kulgili ko'ringani uchun qizchani dugonalari kulib yuborishadi. Qizcha xijolat bo'lganidan dugonalariga bir qarab olib, o'zini devor ortiga oladi. Dugonalari tarqalib ketadi. Bir necha sonialardan so'ng devor ortidan sekin mo'ralaydi. Onasining tushkun holatda ma'nosiz qarab turganini ko'rib,

cho'chib ketadi. So'ng o'zini yana devor ortiga oladi.

5-epizod

Tit: Oradan yillar o'tdi...

Nasiba gilam to'qib o'tiribdi. Eshik ochiladi. Qizi kirib keladi. Sumkasidan bejirim taklifnoma chiqarib, onasining gilam to'qish dastgo'hi-ning ustiga qo'yadi. Qiz onasiga kulib qaraydi va uning ham tabassum qilishini ku'tib qarab turadi. Nasiba ko'z qiri bilan taklifnomaga qarab qo'yadi va ishida davom etaveradi. Qiz o'rnidan turib, xonasiga kirib ketadi. Qizning xonasida katta-katta oq qog'ozlarga chizilgan suratlar ko'rsatiladi. Suratlar orasida Nasibaning kulib turgan surati yirik planda beriladi. Qiz suratga qarab qoladi. So'ng xona derazasidan onasiga, so'ng dastgoh ustidagi taklifnomaga qaraydi. Taklifnoma joyida turibdi. Qizning surat chizayotgani yirik planda ko'rsatiladi.

6-epizod

Nasiba toshoyna qarshisida urinib qolgan kiyimiga qarab, bir zum xayolga toladi. So'ng qo'lliga stol ustida yotgan "Dunyodagi eng go'zal surat. San'at ko'rgazmasiga taklifnoma" deb yozilgan konvertini oladi va tikilib qoladi. Nasiba yana oynaga qaraydi, taklifnomani joyiga qo'yadi. So'ng boshidagi ro'molini yechib o'tib yuboradi va gilam to'qish dastgo'hi yoniga kelib o'tira-

di. Nasibaning ko'zi to'la yosh, qo'li qonab g'illam to'qiyotgani ko'rsatiladi. Shu payt qattiq shamol turadi. Noxos deraza ochilib, kuchli shamol xonani to'zg'itadi. Kuchli shamol soat ustida turgan erining suratini tushirib yuboradi. Surat ustidagi oyna darz ketadi. Nasiba cho'chib ketadi va sakrab o'rnidan turib, suratning singan oynasini olib tashlab, suratning o'zini ilib qo'yadi. So'ng ro'molni boshiga tashlab, uyidan chiqadi.

7-epizod

Nasiba ko'rgazmaga kirib keladi. Odamlar gavjum. Qizi telekameralar oldida nimalaridir to'liqlanib gapirayapti. Nasiba suratlarini tomosha qila boshlaydi va ularning orasida o'zining suratini ko'rib, turgan joyida qotib qoladi. Bu suratda Nasibaning maktab oldidagi shalabboholati tasvirlangan. Nasibaning ko'zlari namlanadi. Qizi onasining oldiga kelib, yelkasiga boshini qo'yib, suratga qaraydi. Nasibaning lablarida tabassum paydo bo'ladi. Kadr o'chib yonadi va shu kadrlarning o'zi suratga aylanadi.

Tamom.

Toshkent, 2019.

MUNDARIJA

Abdugayum Yo'ldoshev.

Yoshlar – kelajagimiz.....3

Shiroqning qaytishi.....5

To'maris.....49

Usto.....89

Urushning bir kuni.....137

Duyodagi eng go'zal surat.....142

UO'K: 821.512.133-2(081)

KBK: 83.3(50'zb)

H 25

H 25 Hamroyev, Bobur.

Shitroqning qaytishi [matn]: Pyesalar va ssenariy-
lar / B. Hamroyev. – Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti,
2020. – 148 b.

Adabiy-badiiy nashr

Bobur HAMROYEV

SHIROQNING QAYTISHI

Pyesalar va ssenariylar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahih: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.

☎ (98) 128-30-04. e-mail: mashhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 1/32

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 4,6.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №352.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.